

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILI KAFEDRASI

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

XOJAMURATOVA AYZADA ERKIN QIZINING
«ONA TILI DARSLIKLARI DIZAYNINI ZAMONAVIYLSHTIRISH»
MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2017

Bitiruv malakaviy ishi O'zbek tili kafedrasi yig'ilishining 2017-yil «___»
_____dagi ___ -sonli bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:

f.f.n., dots. G.Qurboniyazov

Kafedra mudiri:

Sh.Yuldasheva

Ilmiy rahbar:

p.f.n. Sh.Yuldasheva

Bitiruvchi:

Xojamuratova Ayzada Erkin qizi

Xojamuratova Ayzada Erkin qizining «Ona tili darsliklari dizaynini zamonaviylashtirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo'yildi.

«___» _____ 2017-yil

DAK kotibi:

U.Y.Ibragimova

MUNDARIJA

Kirish. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi.		
Birinchi bob. Darsliklar strukturasi va unda dizaynning ahamiyati		
1.1. Amaldagi ona tili darsliklari dizayni haqida.		
1.2. Darsliklar dizayni va xorijiy tajribalar tatbig'i.		
Ikkinchi bob. Darsliklar dizaynini takomillashtirish motivatsiya va ta'lim samaradorligi omili sifatida.		
2.1. "Ona tili" darsliklarida shartli belgilarning ahamiyati va ularni zamonaviylashtirish		
2.2. "Ona tili" darsliklarining bezatilishi ta'lim sifati va mazmunini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri ekanligi		
Uchinchi bob. Darsliklar dizaynini zamonaviylashtirish yuzasidan tavsiyalar.		
3.1. "Ona tili" darsliklari uchun ilovalar zaruriyati		
3.2. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.		
Xulosa.		
Adabiyotlar.		

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Prezidentimizning: “Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo‘lolmasdan, bolalarimizni yangicha fikrlashga o‘rgata olmaymiz”¹ – degan haqli e‘tirozlari umumta‘lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo qilgan edi.

Amaliyotda qo‘llanayotgan yangi avlod darsliklari mafkuraviy va ma‘naviy jihatdan yetuk darajada. Ona tili ta‘limi uchun chop qilingan darsliklarni varaqlar ekansiz, ularda ijodiy mashqlarga ko‘p o‘rin ajratilayotganligi, o‘quvchini ta‘lim jarayoni subyektiga aylantirishga qaratilgan topshiriqlar, ish turlari foydalanilayotganligidan qanoatlanasiz. Bizningcha, darsliklarning faqat mazmun tomoni emas, balki o‘quvchilarni o‘ziga ohanrabodek torta oladigan, qiziqish uyg‘otadigan dizayn tomonlari ham mukammal darajada bo‘lishi kerak.

Prezidentimizning: “Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga, erishgan bo‘lsa – bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo‘ladimi, Yevropa davlatlari bo‘ladimi – bularning barchasidan o‘rganish kerak”², – degan ko‘rsatmalari darsliklar yaratish jarayonida ham e‘tiborga olinishi zarur. Rivojlangan davlatlarda ona tili ta‘limida qo‘llanilayotgan darsliklarning dizayn jihatdan mukammalligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu jihat 5-sinf uchun chop qilingan “Русский язык”, “Fly High” (English) darsliklarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi³.

Ma‘lumki, umumta‘lim maktablarining 5-9-sinflari uchun darsliklar har to‘rt yilda qayta nashr qilinmoqda. Odatda qayta nashrga tayyorlashda tilshunos olimlar, fan o‘qituvchilarining fikrlari inobatga olinib, asosan darslikning nazariy

¹ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1996. 4-jild.– 349 b.

² Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2015.– 234 b.

³ Зеленина В.И., Рожнова М.И. Русский язык / Ta‘lim rus tilida olib boriladigan maktablar uchun darslik. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 240 b.; Jo‘rayev va b. Ingliz tili/ 5-sinf: ta‘lim barcha tillarda olib boriladigan maktablar uchun darslik. – T.: O‘qituvchi. NMIU, 2015. – 200 b.

qismi va mashq-topshiriqlardagi ayrim xatoliklarga tuzatish va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Amaldagi 5-sinf darsligining to'ldirilgan 4-nashri 2015-yilda amaliyotga kiritildi. Uni oldingi nashrlari bilan qiyoslaganda, 86 sahifada mashq va topshiriqlar, mavzulardagi nuqsonlar tuzatilgan. Darslikning 6, 16, 44, 98, 123, 137, 145, 156, 170, 176, 202, 206-betlaridagi rasmlarning dizayni (sifati va mazmuni) qayta ishlangan. Bundan ko'rinadiki, keyingi paytlarda ayrim darsliklar sifati va mazmunini yaxshilashga urinish paydo bo'layotganini e'tirof etish joiz. Biroq bu jarayonni jadallatish zarur. Boisi o'quvchilarning boshlang'ich sinflardan to 9-sinfgacha ingliz tilini yangilangan dizayndagi darsliklar orqali o'rganayotganligi inobatga olinsa, "Ona tili" darsliklarining ham bezatilishi, zamonaviylashtirilishi kechiktirib bo'lmaydigan muhim ish ekanligi yaqqol ayon bo'ladi. Kurs ishimiz ana shu muammoni tahlil qilish va muammo yechimini topishga qaratilgan.

Mavzuning o'rganilishi va dolzarbligi. Mutaxassislarining fikricha, darslik uchun ma'lumot to'plash, reja tuzish, ta'lim jarayonini shakllantirish, ilmiy asoslab berish va hokozolar uchun 20 ga yaqin bosqichdan o'tish zarur ekan⁴.

Metodikada darsliklar strukturasi va dizayniga oid ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Ayni shu muammoga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar mavjud. A.G'ulomov⁵, N.Agzamova⁶, B.To'qliyev, R.Inog'omova, R.Abdulohatova⁷, S.Otaxonovalar⁸ tomonidan darsliklarning mazmuni bilan birgalikda dizayni haqida qimmatli mulohazalarini bildirganlar.

Amaldagi ona tili darsliklarining qator afzalliklarini e'tirof qilgan holda qo'shimcha qilish mumkinki, darsliklarni takomillashtirish uchun tinimsiz ko'p mehnat talab qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida bo'lgan darsliklarning strukturasi va dizaynini o'rganish, ijobiy jihatlarini tatbiq qilish oldimizda turgan muhim vazifalarimizdan biri. Shu ma'noda tadqiqot mavzusi dolzarblik kasb etadi.

⁴ Agzamova N.A. Zamonaviy darsliklarning yaratilish tarixi. //Maktab va hayot. 2008 №2. – B. 29-30

⁵ G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. 291-b.

⁶ Agzamova N.A. Zamonaviy darsliklarning yaratilish tarixi. //Maktab va hayot. 2008 №2. – B. 29-30

⁷ To'xlijev B., Inog'omova R., Abdulohatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, 2008. 10 b.

⁸ Otaxonova S. Darsliklar haqida/"Ma'rifat" gazetasi. 2004-yil 9-iyun, 46-son.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:

Tadqiqot O'zbek tili kafedrasining "O'zbek tilshunosligi va o'zbek tilini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: umumta'lim maktablari uchun "Ona tili" darsliklarining mavjud holatini o'rganish va dizaynini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning vazifalari:

– xorij tajribalaridan o'rganish asosida "Ona tili" darsliklari dizayni zamonaviylashtirishga doir adabiyotlar bilan tanishish, tahlil qilish, umumlashtirish;

– o'quvchining ma'naviy boyligiga aylanadigan, ularning aqliy, hissiy, estetik tarbiyalanishiga xizmat qiladigan, mustaqil fikrlashga yo'naltiradigan zamonaviy ona tili darsligi modelini yaratishga doir taklif va tavsiyalar tayyorlash

– 5-sinf "Ona tili" darsligiga ilova sifatida "5-sinf uchun uyda ish kitobi" yaratish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash

Tadqiqotning obyekti: umumta'lim maktablari 5-sinf ona tili o'qitish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti ona tilini o'qitish mazmuni, usullari va ona tili darsliklaridir.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari: Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Davlat Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", ta'lim-tarbiya sohasida keyingi yillarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va Prezident Sh.Mirziyoyevning ta'lim va tarbiyaga oid asarlari; Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi Sharq mutafakkirlari hamda metodist olimlarning ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari tashkil etadi. Shuningdek,

ishda ona tilini o'qitishga doir ilmiy-metodik **adabiyotlarni o'rganish** va **tahlil qilish**, ona tili darslarini **kuzatish**, bu borada to'plangan tajribalarni umumlashtirish, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida **so'rovnomalar, suhbatlar o'tkazish**, ona tilini o'qitishda **pedagogik texnologiyalarni qo'llash**, tajriba-sinov ishlarining natijalarini miqdor va sifat jihatidan **qiyosiy o'rganish**, umumlashtirish kabi **ilmiy-tadqiqot metodlaridan** foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi nashr qilinayotgan "Ona tili" darsliklarining o'quvchilar ehtiyojiga mosligi yuzasidan tahlillarning amalga oshirilishi; fanning asosiy mazmuni, ta'lim va tarbiya darajasi, ilmiy ma'lumotlar, mashqlar, illyustratsiyalar, texnik xususiyatlar, ranglar, rasm, fotorasmlarning berilishiga qo'yiladigan talablarning o'rganilishi; xorijiy nashriyot tajribalariga murojaat qilinishi; zamonaviy "Ona tili" darsliklarining sifati yuzasidan takliflarning tayyorlanishidir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: Tadqiqot natijalari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida o'tkazilgan professor-o'qituvchilar va talabalarning an'anaviy ilmiy-metodik anjumanlarida muallif tomonidan o'qilgan ma'ruzalarda, e'lon qilingan tezislarda o'z ifodasini topgan.

Ishni yakunlashda bitiruvchining Nukus shahar Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 37-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazgan pedagogik amaliyoti davomidagi va 3-, 38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ona tili o'qituvchilari, amaliyotchi-talabalar, o'quvchilar faoliyati bo'yicha ilmiy-metodik kuzatishlari muhim manba vazifasini o'tadi.

Ishning tuzilishi va hajmi: Bitiruv ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 52 betni tashkil etadi.

BIRINCHI BOB. DARSLIKLAR STRUKTURASI VA UNDA DIZAYNNING AHAMIYATI

1.1. Amaldagi ona tili darsliklari dizayni haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligining qo‘shma hay’at majlisi qaroriga ko‘ra respublika ta’lim markazi huzuridagi fanlar bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashlar hamda Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash fan komissiyalarining qo‘shma qarorlari bilan tavsiya etilgan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha uzviylashtirilgan o‘quv dasturlari 2010-2011-o‘quv yilidan amaliyotga joriy etilmoqda. “Ona tili” fanidan uzviylashtirilgan o‘quv dasturini joriy etish bo‘yicha tavsiya” ham chop etildi. Unda ko‘rsatilishicha, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-,8-,9-sinflarida ona tili fanidan jami 10 soat hajmidagi 10 ta mavzu optimallashtirilgan. Shundan, 4 soat mavzu murakkab deb topilib, unga qo‘shimcha soatlar ajratilgan (takrorlashlar hisobidan), 6 ta mavzu kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o‘quvchilari yoshiga mosligi sababli umumiy o‘rta ta’lim dasturidan chiqarilgan. Mazkur o‘zgarishlar 5-,8-,9-sinflarda amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni 7-moddasida «Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi», – deyilgan. O‘quvchining bilim saviyasiga qo‘yiladigan talab esa, ta’lim jarayoni oldiga qo‘yiladigan **ijtimoiy talab** bilan belgilanadi. **Ona tili ta’lim standarti** ona tilidan belgilanadigan ta’lim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmini hamda o‘quvchilarning yosh va taraqqiyot darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan o‘quv yuklamasining hajmini, umumiy

oʻrta taʼlim maktablari bitiruvchilarining bilim, koʻnikma, malakalariga qoʻyiladigan **minimal talablarni** belgilab beradi.

Ona tili taʼlim standartida sinflar kesimida belgilangan majburiy hajmi oʻquv dasturini yaratishda yetarli darajada inobatga olinmagan, aksariyat hollarda standart va oʻquv dasturi bir-biriga muvofiq kelmaydi.

Shuning uchun, avvalo, ona tilidan DTSi haqidagi tahlil va mulohazalarimizni bayon qilamiz.

“Ona tili taʼlimi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qoʻyiladi”⁹.

Ona tili taʼlim standartida:

- ona tilidan belgilanadigan taʼlim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmi;
- oʻquvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadigan oʻquv yuklamasining hajmi;
- umumiy oʻrta taʼlim bitiruvchilarning bilim, koʻnikma, malakalariga qoʻyiladigan talablar belgilab berilgan.

Jumladan, grammatika va uch xil yoʻnalishdagi nutq oʻstirishga oid bilim, koʻnikma va malakalarni taqdim qiluvchi kommunikativ modelga asoslangan taʼlim mazmuniga muvofiq sinflar kesimida ona tilining majburiy hajmi koʻrsatilgan. “Oʻzbekiston Respublikasi umumiy oʻrta taʼlim maktablarining oʻquv rejasi”da ona tili va adabiyot uchun 1-,2-sinflarda 8 soat, 3-,4-sinflarda 10 soat, 5-sinfda 9 soat, 6-sinfda 7 soat, 7-,8-,9-sinflarda 5 soat belgilab qoʻyilgan boʻlib, 5-sinfda 204 soat, 6-sinfda 170 soat, 7-sinfda 102 soat, 8-sinfda 102 soat, 9-sinfda 68 soat ona tili darslari olib boriladi.

Darslik Davlat taʼlim standartlari talablariga muvofiq keladigan oʻrnatilgan tartibda tasdiqlangan fanning oʻquv dasturi asosida mavzularni toʻliq yoritgan va fanning asoslarini oʻrganishga yordam beruvchi nashr hisoblanadi. Darsliklar

⁹ Ona tilidan Davlat taʼlim standarti. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlimi standarti va oʻquv dasturi. Ona tili. Adabiyot. Oʻzbek tili. (5-9-sinflar). – Toshkent, 2010. 10 b

strukturasi va dizayni haqida A.G‘ulomov va boshqa mualliflar jamoasi tomonidan nashr qilingan “Ona tili o‘qitish metodikasi” kitobida shunday ma’lumotlar keltirilgan: “ Maktabda o‘rganiladigan barcha sinflar uchun yaratilgan darsliklar bir-biriga bog‘liq holda tuziladi va ta’limning uzviyligiga amal qiladi. Darslik DTSda belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Darslik nafaqat bilim va ma’lumot beruvchi, balki o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan, qiziqtiradigan noyob kitob bo‘lishi shart. O‘quvchi darslik orqali shu predmet, shu fan olamiga kirib boradi. Darslikning mukammalligi, o‘quvchining didiga mosligi ta’lim samaradorligining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi”¹⁰. Demak, bu ma’lumotlar asosida darslikning ta’lim jarayonida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi, asosiy vosita sifatida xizmat qilishi, darsliklar strukturasi qanday bo‘lishi kerakligi ayon bo‘ladi. Darhaqiqat, ona tili darsligi ta’limning muhim vositasidir.

Mutaxassislar darsliklarning quyidagi talablarga javob berishi lozimligini ta’kidlaydilar:

- davlat ta’lim standarti talablariga javob berishi;
- dastur asosida yaratilishi;
- yo‘riqnoma (kontsepsiya)ga muvofiq bo‘lishi;
- ta’lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka javob bera olishi;
- darsliklar hajm jihatidan katta bo‘lmasligi;
- tili sodda, ravon, tushunarli bo‘lishi;
- misol va mashqlar uchun tanlangan asarlar (parchalar) o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi;
- misol va mashqlar uchun tanlangan asarlarning rang-barang uslublarga mansub bo‘lishi; uning turi va janriga ham e’tibor berish; eng sara va yuksak badiiyat talablariga javob beradigan badiiy asarlardan olinadigan misollarning salmog‘i til darsliklarida hamma vaqt juda baland bo‘lishi.

¹⁰ G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012. 291-b.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” mualliflari ona tili ta’limi va darsliklarning nazariy-amaliy asoslarini belgilab beradi (jami 12 ta)¹¹. Tadqiqotimiz bilan bog‘liq ayrim jihatlarni sharhlab o‘tamiz.

I. Ona tili – milliy ma’naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat, qadriyatlarning ulkan xazinasini. –

II. Mashg‘ulotlarda ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ustuvorligi ta’minlanadi. –

III. Darslikda o‘quv materiallari o‘quvchilarning har bir sinfda o‘rganadigan boshqa o‘quv fanlari va ulardan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liqlikda beriladi. –

IV. Darslik materiallari o‘quvchilarda tafakkurni va nutqni rivojlantirishning asosiy omillariga: 1) lug‘at boyligini oshirishga; 2) so‘z boyligidan ijodiy matn yaratish jarayonida foydalanishga; 3) mustaqil fikr ifodarsining maqsad va nutq vaziyatiga muvofiqligini tanlashga; 4) aniq, ilmiy va obrazli nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga moslab tuziladi va beriladi. –

V. O‘quvchining ta’lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligi uning darslik topshiriqlarini mustaqil bajarishida o‘z aksini topadi. –

Metodist olimlar tomonidan darsliklarning nazariy-amaliy asoslarining aksariyati (5 ta) darslik strukturasi va dizayni bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi.

Yaxshi darslik mukammal dars, puxta bilim, o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini yo‘lga qo‘yish degani hamdir. Bugina emas “yaxshi darsliklar o‘quvchilar egallaydigan bilimlarning hajmi va sifatini ham kafolatlaydi”¹². Ko‘pgina olimlarimiz darslikdagi asosiy kamchiliklarni faqat uning mazmuni bilangina emas, balki shu mazmunni ochib berishga qaratilgan shakl va usullarning nomunosibligi bilan ham aloqalantirishadi. Biz buni ona tili darsligi strukturasi kuzataylik: ona tili darsligidagi materiallar xususiylikdan umumiylikka qarab boradi, o‘quvchilar darslikda berilgan bir qator ilmiy amaliy topshiriqlarni

¹¹ O‘sha manba.

¹² B.To‘xliyev, R.Inog‘omova, R.Abdulohatova “Darsliklar bilan ishlash metodikasi”

bajargandan so'ng umumlashma va xulosa chiqaradilar. Darslikda "Bilib oling", "Esda tuting" singari ko'rsatkichlar (shartli belgilar) orqali berilgan ma'lumotlar o'ta zaruriy tushuncha va ta'riflarni o'z ichiga oladi. Darslik o'rganilgan mavzularni mustahkamlash va takrorlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Darslikda har bir mavzu yoki bo'limning oxirida berilgan ijodiy-amaliy ishlar (savol va topshiriqlar, matn yaratish, "topqirlar bellashuvi" kabi ta'limiy o'yinlarni o'tkazish, berilgan turli test topshiriqlariga javob qaytarish) o'quvchilarning egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Demak, darslik o'quvchi uchun bilim manbayi bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quv qo'llanmasidir. Chunki, ko'p hollarda dars darslik qolipi asosida quriladi. Darsni darslik qolipi asosida qurish faqat darslikda berilgan o'quv topshiriqlardan foydalanish emas, albatta. O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanadi. Zaruriyat tug'ulganda mashq shartiga qo'shimcha shartlar kiritadi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtiradi, lozim topsa darslikdagi mashq o'rnida o'zi tuzgan mashqdan foydalanadi. Bundan ko'ramizki, darslik strukturasi faqat mo'ljallangan mavzularga qoyib qolgan topshiriqlar berish uchungina emas, balki har tomonlama mukammal topshiriq turlari berilsinki, o'qituvchilar o'z qobiliyat va mahoratlaridan kelib chiqib ijodiy yondashib boshqa bir topshiriqlar tuzishga ham undashi kerakligini anglaymiz. Darslikning strukturasi deganda undagi darslikning dizayni bilan birga uning nazariy qismi ham tushiniladi. Darslikning dizayni nazariy qismiga qanchalik mos va muvofiq kelganda mukammal darslikkka aylanadi. Shuning uchun ham darslikning strukturasi tuzgan vaqtda olimlar bu tomonini e'tiborga oladi. Darslikning strukturasi o'quvchining dastur va darsliklardan oladigan nazariy-amaliy bilimlarini uzviylikni saqlagan holda egallashida muhim omil hisoblanadi. Darsliklarning strukturasi bilan birga ma'naviy va mafkuraviy bilim beruvchi tomonlari ham mukammal bo'lishi kerak. Ya'ni shakl mazmunga mos kelishi kerak.

Tadqiqotimizda darsliklar bilan bog'liq ayrim fikr-mulohazalarimizni bayon qilishni o'rinli deb topdik. Ayniqsa, 5-sinf ona tili darsligida mavzularning yoritilishida, keltirilgan ma'lumotlarda mulohazali o'rinlar mavjud.

Ma'lumki, 2-4 sinflarda: mustaqil soʻz turkumlaridan ot, sifat, son, olmosh, feʼl; yordamchi soʻz turkumlaridan faqat “Bogʻlovchi” yuzasidan ilk nazariy maʼlumotlar beriladi. Lekin 5-sinfda 25-darsda¹³ soʻroq yuklamalari yordamida ifodalangan soʻroq gaplar mavzusi berilgan boʻlib, ungacha, yaʼni boshlangʻich sinflarda ham, aynan shu mavzugacha ham oʻquvchilarda yuklama haqida tasavvur mavjud boʻlmaydi. Yuklamalar alohida turkum sifatida 91-darsda¹⁴ oʻrganilishi nazarda tutilgan. Bizning kuzatishimizcha, bunda uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga eʼtibor berilmagan.

Boshlangʻich sinflarda feʼl, uning kesim vazifasida kelishi, feʼllarning shaxs-son qoʻshimchalari bilan tuslanishi, shaxs-son qoʻshimchalarining soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimcha ekanligi, harakatning uch shaxsning biri tomonidan bajarilishini bildirishi, shaxs-son qoʻshimchalarining **–yap, –di zamon qoʻshimchalaridan** soʻng qoʻshiladigan shakllari, shaxs-son qoʻshimchali feʼllarning talaffuzi va imlosi kabi masalalar 4-sinfda oʻrgatiladi. Lekin nima uchundir 5-sinf ona tili oʻquv dasturida **–dim, –ding, –di, –dik** kabilar zamon qoʻshimchalari¹⁵ sifatida oʻrganilishi nazarda tutilgan. Bu holat 5-sinf ona tili darsligining 2010-yildagi nashrida ham aks etgan. Chunonchi, 78-darsda: “Feʼllar zamon, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik maʼnolari va bu maʼnolarni ifodalovchi qoʻshimchalarga ega boʻladi. Masalan, yozmadim soʻzida **–ma** qoʻshimchasi (boʻlishsizlik), **–di** qoʻshimchasi (zamon), **–m** qoʻshimchasi esa shaxs-son maʼnolarini bildiradi”¹⁶, – deb koʻrsatilgan boʻlsa ham, oʻtgan zamon feʼli oʻrganilishi nazarda tutilgan 80-darsda: “**–di, –ibdi (feʼl unli bilan tugasa –bdi), –gan edi, –gan ekan** qoʻshimchalari bilan keladi”¹⁷ – deb tushuntirilgan. 6-sinf ona tili darsligi 69-darsda “Oʻtgan zamon shakllari” mavzusida “Bilib oling” nomi ostida “Bu zamon shakllari feʼl asoslariga **–di, –(i)b, –gan (–kan, –qan)** qoʻshimchalarini va ulardan soʻng shaxs-son qoʻshimchalarini qoʻshishi bilan hosil

¹³ Ona tili: Umumtaʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Maʼnaviyat”, 2007. – 30 b.

¹⁴ Ona tili: Umumtaʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Maʼnaviyat”, 2007. – 106 b.

¹⁵ Ona tili: Umumtaʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Maʼnaviyat”, 2007. – 11 b.

¹⁶ Ona tili: Umumtaʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Maʼnaviyat”, 2007. – 93 b.

¹⁷ Ona tili: Umumtaʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Maʼnaviyat”, 2007. – 96 b.

qilinadi”¹⁸ degan tushuntiruv yozuvini o‘qiymiz. 5-sinf ona tilining keyingi 2015-yildagi nashrida o‘tgan zamon qo‘shimchasi sifatida ko‘rsatilayotgan **-ibdi (fe’l unli bilan tugasa -bdi)** qo‘shimchasi o‘zining to‘g‘ri shaklida **-b (fe’l unli bilan tugasa -b)** tarzida berilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan. Xususan:

Kelibman

Kelibmiz

Kelibsan

Kelibsiz

Kelibdi

Kelibdi(lar)

kabi misollarda **-di** shaklining o‘zgaruvchi qism, ya’ni shaxs-son qo‘shimchasi ekanligi ayon bo‘lib turibdi.

Oliy pedagogik ta’lim va umumiy ta’lim uzviyligi hamda uzluksizligi, buyurtmachi va iste’molchi maktab talab hamda ehtiyojlari inobatga olingan holda olib borilayotgan ta’lim va tarbiya samarasi natijali bo‘lishini bugungi bozor iqtisodiyoti va jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar taqozo qilmoqda.

Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning fan o‘qituvchilariga qo‘yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan. Fan o‘qituvchilaridan, birinchi navbatda, o‘z fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish, ikkinchidan, davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini mukammal bilish talab qilinadi. Shu bilan birga fandagi yangilanishlar, o‘zgarishlar ham o‘qituvchi diqqat markazida turmog‘i lozim. Aksariyat hollarda oliy ta’lim va o‘rta maxsus hamda umumta’lim maktablari o‘quv dasturlari, darsliklarida nomuvofiqlik, uzviylik va uzluksizlikning ta’minlanmasligi ma’lum. Mazkur masala o‘zbek tilining ona tili sifatida umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari hamda ayni shu muassasalar uchun o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari mutaxassislik fanlarining mazmuni va o‘qitilishi misolida qarab chiqilsa, manzara oydinlashadi.

Ahamiyat qaratilishi talab qilinadigan muhim jihatlardan biri shundaki, darsliklarda tilshunoslik materiallari nomutanosiblikda yoritilmoqda. Xususan, umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun chop etilgan darslikning 2010-yildagi

¹⁸ Ona tili: Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabieva. – T.: Tasvir, 2009. – 76 b.

nashrida o'zbek tilidagi undosh tovushlar 23 ta deb ko'rsatilgan bo'lsa¹⁹ (nazarimizda, mualliflar j harfining ikki tovushni ifodalab kelishini nazardan soqit qilganlar), oliy o'quv yurtlari uchun asosiy darslik hisoblangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida 24 ta deb qayd etilgan²⁰. O'zbek tili magistratura mutaxassisligi uchun yaratilgan "O'zbek tilining nazariy fonetikasi" o'quv qo'llanmasida esa asosli tarzda "O'zbek tilshunosligida undosh fonemalar miqdori xususida hozircha tugal fikr yo'q" deyilgan²¹. 5-sinf darsligining 2015-yildagi nashrida undosh tovushlar miqdori 24 deb ko'rsatilgan.

Xorijiy tillarni o'qitish tajribasi asosida tayyorlangan yangi o'quv dasturlari loyihalarining tajriba-sinovdan o'tishi jarayonida o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga oid metod va usullarga ahamiyat qaratilmoqda. Bizningcha, dastlab maktabda taqdim qilinishi zarur bo'lgan lingvistik materiallar: leksik minimum, Grammatik minimum to'g'ri belgilb olinishi ta'limning maqsad va vazifalari uchun uzviy bog'liqdir.

Metodika uchun nazariya muhim poydevor ekanligi, maktab grammatikasi tilshunoslik fani yutuqlariga asoslanishini unutmasligimiz lozim. Ta'lim tizimining barcha bosqichlari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'limlash yuqorida muammo sifatida qarash talab qilinadigan masalaning hal qilinishiga uzviy bog'liqdir.

Darslik o'quvchi uchun bilim manbasi bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quv qo'llanmasidir. Chunki ko'p hollarda dars darslik qolipi asosida quriladi. Shuni unutmaslik kerakki, darslik o'quvchi bilishi va ustida ishlashi uchun lozim bo'lgan o'quv materialining faqat ma'lum bir qisminigina beradi. Darsni darslik qolipi asosida qurish faqat darslikda berilgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish emas, albatta. O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanadi. Zaruriyat tug'ilganda mashq shartiga qo'shimcha shartlar kiritadi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtiradi, lozim topsa, darslikdagi mashq o'rnida o'zi tuzgan mashqdan foydalanadi.

¹⁹ Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: "Ma'naviyat", 2007. – 124 b.

²⁰ Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Jamolxonov X. – T.: "Talqin", 2005. – 57b.

²¹ Jamolxonov X. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – T.: Fan, 2009. 130 b.

Amaliyotchi o'qituvchilar, mutaxassislarning tajriba-sinovdan o'tayotgan loyiha va darsliklar yuzasidan bildirayotgan mulohazalari, takliflari umumlashtirgan holda mukammal me'yoriy hujjatlarning ta'lim jarayoniga tatbiq qilinishi va shu asosda yaratiladigan darsliklar sifatining yanada oshishi ona tili o'qitish samaradorligini keskin ko'taradi deb umid qilamiz.

1.2. Darsliklar dizayni va xorijiy tajribalar tatbig'i

Darsliklarning bugungi kun talablariga javob berishi, o'qituvchi va o'quvchilarning eng yaqin yordamchisi bo'la olishi uning dizayniga uzviy bog'lanadi. Bugungi kunda "Ona tili" darsliklari shu nuqtayi nazardan qanday bahoga sazovor bo'la oladi. Shuni bilish maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbat, so'rovnomalar o'tkazildi.

1. Mavzuni tushunish yoki uyga vazifa uchun berilgan mashqlarni kutilgandek bajarish uchun darslikdan boshqa qanday manbalarga zarurat sezasiz?

- A) Zarurat sezmayman.
- B) Ko'pincha lug'atlarga ehtiyoj sezaman.
- S) Ota-onam yoki aka-opalarimdan yordam so'rayman.
- D) Kompyuterdan, internetdan foydalanaman.

2. Siz o'qiyotgan ona tili darsligida mashqlarni bajarish jarayonida qo'shimcha manbalardan foydalanish bo'yicha topshiriqlar qo'yilganmi?

- A) E'tibor bermagan ekanman.
- B) Lug'atlardan foydalanish ko'rsatilgan
- S) Adabiyot yoki tarix darsligidan foydalanishga doir topshiriq berilgan.
- D) Gazeta, jurnallardan foydalanishga doir topshiriq berilgan.

3. Ona tilidan uyga vazifalarni bajarish jarayonida oilaviy kutubxonangizdagi lug'atlardan foydalanasizmi?

- A) Oilaviy kutubxonamizda lug'atlar mavjud emas.
- B) Kerakli lug'atni topa olmayman
- S) Lug'atlardan foydalanishga zarurat bo'lmagan.

D) Foydalanaman.

4. Ona tili darsligingiz oxirida ko'rsatilgan ilovalardan qachon, qanday foydalanasiz?

A) Foydalanmayman.

B) Ilovalar keltirilmagan.

S) Ilovalar borligiga e'tibor bermagan ekanman.

D) Ba'zan foydalanman.

5. Ona tili darsligidan qo'shimcha foydalanish uchun nimalar bo'lishini xohlar edingiz?

A) Darslikka e'tirozim yo'q

B) Jadval va sxemalar, lisoniy tahlil tartibi, to'g'ri talaffuz va imlo lug'atlari qo'shimcha qilinishini xohlardim

S) Ayrim imlo va tinish belgilarining qo'llanilishi qoidalari qo'shimcha qilinsa.

D) Tushunilishi qiyin ayrim so'zlar uchun lug'at keltirilsa.

So'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'quvchilar (65 foiz) mavzuni tushunish yoki mashqlarni kutilgandek bajarish uchun darslikdan boshqa manbalarga murojaat qilmas ekanlar. Bu ham ijobiy, ham salbiy holatdir. Ijobiy jihat – darsliklarda uyga vazifa uchun mashq va topshiriqlar maxsus ajratilgan. Ular o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladi, deb xulosa chiqarish mumkin. Salbiy jihat o'qituvchilar qo'shimcha manbalarga ehtiyoj bo'lsa ham, ana shu ehtiyojni qondirishning imkoni bo'lmaganligidan o'quvchilarni qiyin vaziyatga qoldirmaslikni o'ylab ijodiy mashqlarga e'tibor qaratmaydilar, deb tushunish mumkin. 15 foiz o'quvchi "Ko'pincha lug'atlarga ehtiyoj sezaman", 10 foiz o'quvchi "Ota-onam yoki aka-opalarimdan yordam so'rayman", yana shuncha o'quvchi "Kompyuterdan, internetdan foydalanaman" degan javoblarni berishgan.

So'rovnomadagi ikkinchi savol – "Siz o'qiyotgan ona tili darsligida mashqlarni bajarish jarayonida qo'shimcha manbalardan foydalanish bo'yicha topshiriqlar qo'yilganmi?" deb qo'yildi. 70 foiz o'quvchi "E'tibor bermagan

ekanman”, 10 foiz o‘quvchilar “Lug‘atlardan foydalanish ko‘rsatilgan”, 12 foiz o‘quvchilar “Adabiyot yoki tarix darsligidan foydalanishga doir topshiriq berilgan”, 8 foiz o‘quvchilar “Gazeta, jurnallardan foydalanishga doir topshiriq berilgan” degan javoblarni berishgan.

“Ona tilidan uyga vazifalarni bajarish jarayonida oilaviy kutubxonangizdagi lug‘atlardan foydalanasizmi?” deb qo‘yilgan savolga 45 foiz o‘quvchilar “Oilaviy kutubxonamizda lug‘atlar mavjud emas”, 25 foiz o‘quvchi “Kerakli lug‘atni topa olmayman”, 25 foiz o‘quvchi “Lug‘atlardan foydalanishga zarurat bo‘lmagan”, 5 foiz o‘quvchilar “Foydalanaman” degan javoblarni berishgan.

45 foiz o‘quvchilar “Ona tili darsligingiz oxirida ko‘rsatilgan ilovalardan qachon, qanday foydalanasiz?” deb qo‘yilgan savolga “Foydalanmayman” deb javob berishgan bo‘lsalar, yana shuncha o‘quvchi “Ilovalar borligiga e’tibor bermaganman ekanman” degan javobni tanlaganlar. 5 foiz o‘quvchilar “Ilovalar keltirilmagan” va yana shuncha o‘quvchilar “Ba’zan foydalanaman” deb javob berishgan.

O‘quvchilar uchun berilgan so‘nggi savol “Ona tili darsligidan qo‘shimcha foydalanish uchun nimalar bo‘lishini xohlar edingiz?” deb qo‘yildi. 35 foiz o‘quvchi “Darslikka e’tirozim yo‘q” deb hisoblasalar, 30 foiz o‘quvchilar “Jadval va sxemalar, lisoniy tahlil tartibi, to‘g‘ri talaffuz va imlo lug‘atlari qo‘shimcha qilinishini xohlardim” degan javobni berishgan. 15 foiz o‘quvchilar “Ayrim imlo va tinish belgilarining qo‘llanilishi qoidalari qo‘shimcha qilinsa” deb xohishlarini bildirganlar. “Tushunilishi qiyin ayrim so‘zlar uchun lug‘at keltirilsa” deb xohlovchilar esa 20 foizni tashkil etdi.

So‘rovnomalarni o‘tkazish va uning natijalarini tahlil qilishdan shunday xulosaga keldikki, darsliklardagi ilovalar o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos kelmaydi.

Ona tili darsliklarida lug‘atlar bilan ishlashga doir mashq va topshiriqlar o‘rin olgan. Masalan, 5-sinf ona tili darsligida quyidagi mashqlar shunday xarakterdadir.

486-mashq. Uyga topshiriq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan peshona, burun, og‘iz, tish, quloq, yuz, bel so‘zlarining ma’no turlarini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

504-mashq. Uyga topshiriq. Quyidagi paronimlarning ma’nolarini izohli lug‘atdan toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ramz-razm, yolqin-yorqin, sayil-sayir, sada-sado

555-mashq. “**U kim bu nima**” Bolalar ensiklopediyasidan olingan parchani o‘qing. Qomusiy lug‘atlarda nimalarga e’tibor berilar ekan. Shu haqda o‘ylab ko‘ring.

Bu kabi mashqlarni 8-sinf ona tili darsligida ham ko‘rish mumkin.

75-mashq. Uyga vazifa. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanib so‘z birikmasi va so‘zning ma’nodoshligiga misollar topib yozing.

Yuqorida o‘tkazilgan so‘rovnomalardan ma’lum bo‘ldiki, aksariyat o‘quvchilarning oilaviy kutubxonalarida lug‘atlar yetarli emas.

Demak, lug‘at bilan bajarilishi zarur bo‘lgan mashqlar bajarilmasdan yoki chala bajarilgan holda qolib ketadi. O‘quvchining og‘zaki va yozma nutqini so‘z boyligini o‘stirishga qaratilgan maqsad va vazifalarga erishilmasdan, darslar nomiga o‘tiladi. Shu bois muayyan sinf doirasida o‘rganiladigan so‘zlar, orfogrammalar, lisoniy birliklar yuzasidan lisoniy lug‘atlar va qomusiy lug‘atlardan yetarli darajada ixchamlashtirilgan holatda ilovalarga kiritilishi zarur. Asosan, o‘rganilgan atamalar lug‘ati keltirilgan bo‘lib, biz nazarda tutgan lug‘atlar amaldagi darsliklarning hech biriga kiritilmagan.

Ilovalarda o‘rganilgan mavzularga doir lisoniy tahlil tartibi, sxema va jadvallar berilsa, darslarning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo‘lar edi.

O‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan so‘zlarning umumiy miqdori va hajmi belgilangan bo‘lishi, buning uchun tegishli so‘zlarning alifboli tizimi ishlab chiqilishi ish muvaffaqyatini ta’minlaydigan dastlabki omillardir. O‘quvchilar uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida sinonimlar lug‘ati, antonimlar lug‘ati, o‘zbek tilining izohli lug‘ati bilan tanishtirilib borilishi kerak

Ona tili fani o‘qituvchilarni fikr bayon qilish va uni o‘qib olish faoliyatiga

tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqar ekan, har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilishdir, ya'ni fikrini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili dasrlarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Darsliklarda asosan imlo va izohli lug'atlar ilova sifatida keltirilganligini ko'ramiz. Biroq, nazarimizda, o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan barcha turdagi lug'atlarni ilova sifatida sinflar kesimida darsliklarga kiritish zaruriyati mavjud.

5-sinf uchun 1995-yil chop etilgan "Ona tili" darsligi so'nggida lug'at keltirilgan bo'lib, uni ilova sifatida qabul qilish mumkin. U izohli lug'at bo'lib, 50 ta so'zning izohi berilgan. Jumladan, abadiy, abzats, avlod, avtobiografiya, avtomat, atlas, boronalamoq, bosh, bunker, vertolyot, gavhar, gerbariy, davlat I, davlat II, davolamoq, dendropark, direktor, direksiya, durusht, zastava, ziyo, internat, istiqbol, kalendar, kolleksiya, kombayn, madhiya, makulatura, model, novator, pavilon, plug, predmet, ryukzak, salyut, svetafor, tabel, turizm, turist, uchastka, festival, firuz, firuza, xiyobon, sharada, ekskavator, ekskursiya, eskalator, yubiley, hirs kabilar.

5-sinf uchun 2000-yilda chop etilgan "Ona tili" darsligida izohli lug'at keltirilib, unda adab, adabiyot, ayg'ir, amin, antiqa, aniqlovchi, arbob, atama, baytal, bayon, baxil, bedov, beshotar, biznes, biznesmen, birja, biya, bol, bog'lovchi, bo'yinbog', daho, dara, domla, do'nan, ega, ehtiyoj, elchi, faol, farishta, farmon, faylasuf, fermer, fizika, fuqaro, guruh, hasham, hol, iymon, imlo, imom, iroda, istiqloq, iste'dod, iqbol, jilg'a, kalava, ka'ba, kommersant, kotib, ko'rk, latifa, litsey, lustra, madhiya, mahliyo, mahram, mangu, mavzu, mahliqo, ma'rifat, ma'ruza, menejer, mikroskop, mingboshi, mirshab, mitti, muallif, murojaat, mutaxassis, mushkulot, navo, najot, nurafshon, ommabop, omoch, or, oqibat, parma, qasr, qashqa, qirqog'ayni, qofiya, qorabayir, qozi, rais, ramz, rasta, saman, saroybon, sayyoh, simob, soha, sovrin, sovrindor, soch, so'lim, talaffuz, tasavvur, tasvir, tavsif, taxallus, ta'zim, teleskop,

tillaqosh, tilmoch, toy, tuyuq, to‘p, to‘tiyo, to‘zon, vazir, xalifa, xossa, xushxo‘r, yo‘lboshchi, yo‘rg‘a, ziyrak, zukko, o‘tov, g‘alva, g‘o‘nan, g‘irot, shovvoz, shudgor, charos, chillaki kabi 126 ta so‘zning izohi berilgan.

Har ikkala darslikdagi izohli lug‘atni qiyoslash natijasida shuni yaqqol ko‘rish mumkinki, birinchi navbatda, so‘zlarning miqdori jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Ikkinchi lug‘atda ikki baravar ko‘p so‘z izohlangan. Ikkinchidan, izohlanayotgan so‘zlarning **sifatida** keskin tafovut mavjud. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

Mamlakatimiz mustaqilligi arafasida va dastlabki yillarida til siyosatidagi keskin o‘zgarishlar 1995-yilda chop etilgan darslikda sezilar-sezilmas darajada. To‘g‘rirog‘i, mualliflar oldingi darslikda berilgan ilovalarni qanday bo‘lsa shunday foydalanishgan. Biroq 2000-yilda chop etilgan darslikka ilova qilingan izohli lug‘atda davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi natijasida til taraqqiyoti jarayonida uning ichki imkoniyatlari asosida rivojlanish qonuni to‘la, erkin amal qila boshlashi, respublikamiz hayotida barcha sohalarda yuz berayotgan katta o‘zgarishlar, rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi ta‘sirida o‘zbek tili leksikasining rivojlanishi, sezilarli o‘zgarishlarga uchraganligi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Mazkur darslikda iboralarining izohli lug‘ati keltirilgan. Jumladan, **arpasini xom o‘ribdimi, baloga qoldi, bag‘ri tosh, bel bog‘ladi, dimog‘i chog‘ bo‘ldi, gapi bir joydan chiqdi, ilonning yog‘ini yalagan, yeng shimarib, yulduzni benarvon uradigan, joni halqumiga keldi, kalavaning uchini topdi, ko‘zi ilindi, ko‘ziga issiq ko‘rindi, ko‘zi och, ko‘ngli butun, ko‘ngli yumshoq, ko‘ngli oq, ko‘ngli ko‘tarildi, lafzi halol, mazasi qochdi, misi chiqdi, nomi chiqdi, oq-qorani tanidi, qo‘li ochiq, terisiga isg‘madi, tili uzun, tili shirin, toqati toq bo‘ldi, vahima bosdi, xo‘rligi keldi** kabi 30 ta iboraning izohi keltirilgan. Buni nihoyatda ijobiy holat sifatida baholash zarur.

Darsliklar uchun ilovalarning ana shu kabi yutuqlari qatorida e‘tirozli o‘rinlar ham mavjud. Ma‘lumki, imloni mashqsiz, lisoniy tahlillarsiz to‘liq egallash aslo

mumkin emas. Bu ona tili ta'limi aksiomasidir. Induktiv usulda tashkil qilinadigan ona tili darslarining to'rtinchi bosqichi ham shuni taqozo qiladi²².

Dars tipologiyasini o'rgangan didakt olimlarimizning ta'kidlashlaricha, til ta'limi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishmoq uchun o'quvchilarning to'g'ri yozish, to'g'ri talaffuz qilish malakalarini egallashlarida lisoniy tahlillarni o'tkazishning alohida o'рни bor²³. Iqror bo'lish kerakki, 80-yillar metodikasidagi bu fikr hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Darsliklarda ijodiy mashqlarga ko'p o'rin ajratilayotganligi, o'quvchini ta'lim jarayonining subyektiga aylantirishga qaratilgan topshiriqlar, ish turlari foydalanilayotganligi ijobiy hol, albatta. Biroq ta'kidlash o'rinliki, ta'lim tizimining oldingi bosqichlarida muvaffaqiyatli foydalanilgan ish turlari darsliklardan o'rin olishi lozim edi. Xususan, darsliklarimizda lisoniy tahlil turlari uchun o'rin ajratilardi. Bu holat 5-sinfdan to 11-sinfgacha bo'lgan ona tili darsliklarining barchasi uchun birdek xos edi. So'nggi yillarda esa lisoniy tahlilga doir ishlar faqat 8-sinf darsligida mavjud bo'lib, boshqa darsliklar mualliflari lisoniy tahlilga e'tibor qaratishmagan.

O'zbek tilshunoslari To'ra Qudratov va To'ra Nafasovlar olim Aleksey Vasilyevich Tekuchevning «Grammatik tahlil metodikasi» (1952) «Maktabda grammatik tahlil» (1963) asarlarida «Grammatik tahlil» atamasi ostida fonetik, morfologik, etimologik, sintaktik va grammatik, stilistik tahlillarni tushunishiga, etimologik tahlilni morfologik tahlil, morfologik tahlilning bir turi sifatida yondashuviga muayyan darajada o'rinli e'tiroz bildirishganlar, nihoyat, grammatik tahlil deyilganida morfologik va sintaktik tahlil tushunilishi joiz ekanligini ta'kidlaydilar.²⁴

Ayni mazmun, xususan, keyingisi 2000-yillar metodik o'quv qo'llanmalarida ham tavsiya qilinadi. Metodist olimlar Asqar Qodirovich G'ulomov hamda

²² G'ulomov A., Ne'matov H. «Induktiv» o'zbek tili dasturi. – Toshkent, 1992. Yil oxirida takrorlash mashg'ulotlariga qarang.

²³ Roziqov O. O'zbek tilidan dars tiplari. – Toshkent, «O'qituvchi» 1976.

²⁴ Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. – Toshkent, «O'qituvchi» 1981. 8-b.

Muhammadjon Qodirovlarning ta'kidlashicha, «Grammatik tahlil mazmuniga ko'ra ikki tarkibiy qismga bo'linadi: morfologik tahlil va sintaktik tahlil»²⁵.

Demak, «Lisoniy tahlil» atamasi keng qamrovli, «Grammatik tahlil» atamasi esa nisbatan torroq qamrovli lisoniy tushunchalardir. Ta'kidlash joizki, maktab tajribalarida lisoniy tahlillar til o'rgatish mashg'ulotlarida beqiyos aqliy faoliyat turidir. Afsuski, ularning barchasiga ham talab darajasida e'tibor berilmaydi.

Til hodisalalari lisoniy tahlil asosida amaliy o'rganiladi. Lisoniy tahlil olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko'ra konkret bir til yoki nutq birligini (so'z yoki gapni) parchalab o'rganishdir. Bilim turli qoidalar va terminlarni o'zlashtirishdan iborat. Biroq o'quvchi undan amalda foydalana olmasa, u faqat mexanik tarzda yodlangan qoida va terminlardan iborat bo'lib qoladi, xolos. Kishining ma'lumoti, madaniyati uning faoliyatida ko'ringanidek, haqiqiy bilim amaliyotida qo'llanishi bilan belgilanadi. Lisoniy tahlil o'quvchilarga mustahkam bilim berish yo'lidagi metodik usullardan biridir. Tilshunoslikning har bir tarmog'i o'qitilayotganda o'qituvchi lisoniy tahlildan, albatta, foydalanishi lozim. Lisoniy tahlil uy vazifasi sifatida ham berilishi mumkin. Morfologiya va sintaksis bilan bir qatorda fonetika, leksikorgafiya, orfoepiya, orfografiya, so'zning morfologik strukturasi, so'z yasalishi kabi sohalar o'tilayotganda shularga aloqador lisoniy hodisalar yuzasidan tahlil uyushtiriladi. Biroq darsliklarning o'zida ham, ilovalarda ham lisoniy tahlil tartibi va namunalari keltirilmayapti. Rus sinflari uchun yaratilgan "Rodnoy yazik" darsliklarini varaqlar ekansiz, har bir darslikka ilova qilingan tahlil tartibi va namunasi mavjudligini ko'rasiz. Ular o'qituvchi va o'quvchilar uchun juda qulay sxemalar shaklida taqdim qilingan.

Nazarimizda, ona tili darsliklarida ham ana shunday ilovalar kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

²⁵ G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 2001, 137-b.

**IKKINCHI BOB. DARSLIKLAR DIZAYNINI
TAKOMILLASHTIRISH MOTIVATSIYA VA TA'LIM
SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA**

**2.1. “Ona tili” darsliklarida shartli belgilarning ahamiyati va ularni
zamonaviylashtirish**

Bugungi kunda amaliyotda qo'llanilayotgan darsliklarning yuqorida keltirib o'tilgan talablarga javob bera olishini ham kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa darsliklarimiz mafkuraviy va ma'naviy jihatdan mukammal darajada. Mana shu jihatlarini o'quvchilarga bevosita ta'sir qila oladigan dizayn jihati esa yanada mukammal bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biz quyida hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan 5-sinf ona tilining eng so'nggi nashrini tahlil qilaylik. Xususan, darslikni varaqlar ekansiz, unda o'quvchilarga manaviy mafkuraviy jihatdan bilim beruvchi mashq va topshiriqlarni, turli usullarni ko'rib qanoatlanasiz, lekin darslikning mana shu topshiriqlariga yo'nalish beradigan dizayn tomoni esa biroz kamchiliklardan iboratligini kuzatishingiz mumkin. Masalan, darslikning boshlanma qismi 3-betini tahlil qilamiz, tahlil shuni ko'rsatdiki darslikdagi topshiriqlar, qoidalar qanday bajarilishiga ishora qiladigan shartli belgilar berilgan. Bular quyidagilar:

Shartli belgilar

-  — javob bering.
-  — eslab qoling.
-  — bilib oling.
-  — iqtidorli o'quvchilar uchun mo'ljallangan mashq va topshiriqlar.
-  — o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan mashqlar.
-  — tajriba uchun mo'ljallangan mashqlar.

Bizning nazarimizda, ayni shu shartli belgilarni mukammaltirish zarur. Darslikda **“Shartli belgilar”** deb qo'llangan jumla o'rnida **“Ramz”** atamasini foydalanish va quyidagi rangli tasvirlarni qo'llash ma'qul bo'lar edi. Bunda:

	– javob bering.
	– bilib oling.
	– eslab qoling.
	– iqtidorli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashq va topshiriqlar.
	– o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashqlar.
	– tajriba uchun mo‘ljallangan mashqlar.
	– uyga vazifa

Darslikdagi mavjud belgilarni o‘quvchi yoki o‘qituvchi tasvirlari bilan almashtirilishi darsga quvnoq kayfiyat bag‘ishlaydi, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.



Darslik matnida imlosi va talaffuzi qiyin bo‘lgan so‘zlar ham uchraydi. O‘quvchilar mashqlarni bajarish jarayonida lug‘aviy ma’nosi notanish so‘zlarga duch keladi. Demak, imlo va to‘g‘ri talaffuz uchun kichik lug‘atchalarga ehtiyoj mavjud. Shuningdek, so‘z va iboralarning izohli lug‘ati ham taqozo qilinadi. “Imlo lug‘ati” va “To‘g‘ri talaffuz lug‘ati”, “Izohli lug‘at”ga murojaat qilish zarurligiga ishora qiluvchi tasvir berilishi kerak.

5-sinf ona tili darsligi rassomlari Bogdanova va boshqalar muharrirligida darslikning dizayn jihatida yoritib berilganligini kuzatishimiz mumkin. Darslik yuqorida aytib o‘tganimizday shartli belgilardan, darslik oxiridagi “Atamalar lug‘ati”dan iborat. Darslikdagi shartli belgilarni rivojlangan davlatlarning ta’lim jarayonidagi darsliklari bilan solishtirsak, bizning darsligimizga nisbatan ancha mukammal darajada ekanligini kuzatamiz.

Biz 5-sing darsligining yana bir jihatiga e'tibor qaratishimiz kerak. O'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, to'g'ri yozish qoidalarini egallashlariga imkoniyat yaratadigan vositalardan foydalanishimiz kerak. Xususan, o'quvchilarga to'g'ri yozishilishi qiyin bo'lgan so'zlarning kichik lug'atlari berilishi, talaffuzida qiyinchilikka uchraydigan so'zlarni aniqlab, ularning ham transkripsiyasi bilan yozilgan alfavit tartibida lug'ati berilishi kerak. Shunda o'quvchilar so'zlarning qanday talaffuz qilinishi kerakligin bilib, to'g'ri talaffuz qiladi.

5-sinf o'quvchilari ona tili til sathlarining boshlang'ich bilimlarni mana shu sinfda mukammal o'rganashidi. Shuning uchun o'quvchilarning nutqiy savodxonligini, yozma savodxonligini oshirish qolaversa, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shu talablardan kelib chiqib darslik ham mana shunday talablarni bajara oladiga o'rgata oladigan darajada mukammal bo'lishi kerak. Biz buni ko'proq rivojlangan davlatlar tajribasida kuzatishimiz mumkin.

2.2. “Ona tili” darsliklarining bezatilishi ta’lim sifati va mazmunini belgilovchi ko’rsatkichlardan biri ekanligi

Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrdagi xorijiy tillarni o'rgatishni chuqurlashtirish to'g'risidagi qarori tufayli pespublikamizda tillarni o'qitish jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'qitish tajribalarining ona tili ta'limiga ijobiy ta'siri shunda sezilmoqdaki, “Ona tili” darsliklari mazmuni va tuzilishi ham tubdan yangilanishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy darslik did bilan ishlangan, rang-barang rasmlar bilan boyitilgan, matbaa sifati yuqori bo'lmog'i lozim²⁶. Tan olish kerak, “Ona tili” darsliklarida rasm va boshqa illyustratsiyalardan juda kam foydalanilyapti. Rasmlar asosan, oq, havorang va qora rangdagi tasvirlardangina iborat, xolos. Ularda turli jadvallar, sxemalar, diagrammalardan foydalanish joiz ko'rinadi.

²⁶ Otaxonova S. Darsliklar haqida//”Ma’rifat” gazetasi. 2004-yil 9-iyun, 46-son.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun darsliklar har to'rt yilda qayta nashr qilinmoqda. Odatda qayta nashrga tayyorlashda tilshunos olimlar, fan o'qituvchilarining fikrlari inobatga olinib, asosan darslikning nazariy qismi va mashq-topshiriqlardagi ayrim xatoliklarga tuzatish va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Bundan amaldagi 5-sinf darsligi ham mustasno emas. Mazkur darslikning to'ldirilgan 4-nashri 2015-yilda amaliyotga kiritildi. Uni oldingi nashrlari bilan qiyoslaganda, 86 sahifada mashq va topshiriqlar, mavzulardagi nuqsonlar tuzatilgan. Darslikning 6, 16, 44, 98, 123, 137, 145, 156, 170, 176, 202, 206-betlaridagi rasmlarning dizayni (sifati va mazmuni) qayta ishlangan. Bundan ko'rinadiki, keyingi paytlarda ayrim darsliklar sifati va mazmunini yaxshilashga urinish paydo bo'layotganini e'tirof etish joiz. Biroq bu jarayonni jadallatish zarur. Boisi o'quvchilarning boshlang'ich sinflardan to 9-sinfgacha ingliz tilini yangilangan dizayndagi darsliklar orqali o'rganayotganligi inobatga olinsa, "Ona tili" darsliklarining ham bezatilishi, zamonaviylashtirilishini kechiktirib bo'lmaydigan muhim ish ekanligi yaqqol ayon bo'ladi.

Quyida darsliklar dizayniga oid ayrim tahlillarimiz hamda tavsiyalarimizni keltiramiz.

Darslikda dars raqami va mavzu nomi ham oddiy berilmasdan, hovarang yoki yashil ranglarda ma'lum bir grafik tasvirlar bilan berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

136-dars. "NG, ng HARF BIRIKMASI VA UNING VAZIFASI"

Amaldagi 5-sinf darsligida **nazariy ma'lumotlar** asosan aylangan to'g'ri to'rtburchak ichida keltirilgan. Masalan "**Ng, ng harf birikmasi va uning vazifasi**" mavzusi uchun berilgan nazariy ma'lumotni keltiramiz:

- ! **Ng** harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalaydi.
- Bu harflar birikmasini ikkita alohida *n* va *g* undoshlarini ifodalovchi harflarning yonma-yon kelishidan farqlash lozim. **Ng** harflar birikmasi bir bo‘g‘in tarkibida, *n* va *g* harflari boshqa-boshqa bo‘g‘inlar tarkibida keladi. Solishtiring: *shud-ring*, *ko‘-ngil*, *si-ngil*, *ko‘rdi-ngiz*, *men-ga*, *osmon-ga*, *kon-gress*, *shtan-ga*.

Bizningcha, nazariy ma’lumotlarni **jadvallar, sxemalar, algoritmlar** vositasida taqdim qilish murakkab atama va ta’riflarning xotirada mustahkamlanishiga yordam beradi. Misol tariqasida “**NG, ng HARF BIRIKMASI VA UNING VAZIFASI**” mavzusi uchun quyidagi usulda nazariy ma’lumot taqdim qilish mumkin.


Ikki harfdan iborat bo‘lgani uchun harf birikmasi deyiladi

Bitta til orqa undoshini ifodalaydi

Bir bo‘g‘in tarkibida keladi (si-ngil)

n va g undoshlari yonma-yon kelishidan farqlash kerak.

n va g undoshlari yonma-yon kelishi mumkin (men-ga, shtan-ga)



Aksariyat so‘zlar, ilmiy atamalar, kasb-hunar atamalari, shevaga oid so‘zlar ma’nolari o‘quvchilar uchun mavhum bo‘lib, bizningcha, ayni shu so‘zlar izohi uchun tasvirlar kerak. Xususan, “Morfologiya” bo‘limida o‘quvchilar so‘z turkumlarini o‘rganishadi (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe‘l va yordamchi so‘zlar). O‘quvchilar so‘z turkumlarini bir-biridan oson farqlashlari uchun nazariyaga mos tasvirlar, jumladan, fe‘l so‘z turkumi harakatni bildirishi biror bir harakat bildiradigan tasvir (badantarbiya bilan shug‘ullanayotgan bola) orqali ko‘rsatilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu ona tili o‘qitishda ta’limiy maqsad bilan birgalikda tarbiyaviy maqsadga erishish vositasi bo‘lishi muqarrar.

Darslikdagi mashq va topshiriqlar esa an'anaviy qoliqlar asosida berilgan. O'quvchilarga uyga vazifalari ko'pincha "matn tuzing" tarzida taqdim qilingan. Mashq va topshiriqlarning taqdim qilinishida ingliz tilini o'rganish uchun chop qilingan darslik va o'quv qo'llanmalarda foydalaniladigan mashq turlarini qolip sifatida olish maqsadga muvofiq. Chunki mashqlar ham alohida dizaynga ega bo'lar edi. Quyida 130-dars uchun tayyorlangan mashq va topshiriqlar dizaynini namuna sifatida keltiramiz:



130-dars. K – G, Q – G' UNDOHLARI TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'ying va tez aytishlarni mashq qiling.

1. Momo...alldiro...qalldiro...i...odiralini...o'rqitdi.
2. Qoron...u tun...oraroq. Qora...alam undan...oraroq.
3. ...o'n...iroqgul pushti. o...Chalar...o'ng'ir...o'n...iroq.
4. ...andolat...andni...isirlatib...arsillatdi.
5. Qarg'a...ishni...idirib...ir...oqda...a...illadi.



2-topshiriq. Javoblar qutisidan foydalanib gaplarni to'ldiring. Terma gaplar qavsi asardan olinganligini o'vlab ko'ring.

Ko'z, qizaloq, qush, qo'ng'iroq

1. Aytishlaricha bizning mamlakatimizda bir ajoyib _____ bor ekan, uning oti bulbul ekan.
2. Nihoyat oshxonada ishlaydigan bir _____ dan qushning daragini eshitib qolishibdi.
3. Xuddi ibodatxonamizdagi _____ tovushiga o'xshaydi-ya!
4. Imperatorning _____ laridan yosh oqqanini ko'rdim.

3-topshiriq. Moslikni tanlang.

butoq	-ga
na'matak	-ga
bulbul	-ga
kajava	-ka
to'garakka	-ka
barg	-ga



Tatbiq arabcha so'z bo'lib, amalda ishlatish, qo'llashdir.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”

Har bir darslikda fanlararo integratsiya ta'minlanishi zarur. 5-sinf ona tili darsligidagi ba'zi bir mashq va topshiriqlarda ham fanlararo integratsiya bilan bog'liq holatlarni kuzatishimiz mumkin. Darslikda mashq va topshiriqlarning qaysi fan bilan bog'lanayotganini anglatadigan tasvirlarga ham o'rin berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbek tili kafedrasida qoshida tashkil qilingan “Yosh metodist” to'garagi a'zolari p.f.n. Sh.Yuldasheva rahbarligida umumta'lim maktablarida amalda bo'lgan ona tili darsliklari uchun “Uyda ish daftari”ni tayyorlash yuzasidan

izlanishlar olib bormoqdalar. To‘garak a‘zolari qatorida 5-sinf “Ona tili” darsligi uchun “Uyda ish daftari”ning dizaynini yaratish yuzasidan olib borayotgan tadqiqotimizda fanlararo aloqaga ham e’tibor qaratganmiz.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatidan kelib chiqib, nazariy ma’lumotlarni taqdim qilishda mavzuga nos rasmlar bilan bezatishni tavsiya qilamiz. Masalan, 1-dars uchun uyga vazifalar tayyorlashda o‘quvchilarga yaxshi tanish bo‘lgan multfilm qahramoni Mavglining rasmini keltirdik.



1-dars. KIRISH SUHBATI. TIL – IJTIMOY HODISA

Bilib oling! Tilni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi fan **tilshunoslik** yoki **lingvistika** deyiladi. **Lingvistika** – [fr. linguistique < lot. lingua — til] Til haqidagi fan, til bilimi; tilshunoslik. **TILSHUNOSLIK = LINGVISTIKA**

1-topshiriq. Quyida berilgan matn bilan tanishing va **“Tushunchalar tahlili”** jadvalini to‘ldiring.



Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?

Til bo‘lishi uchun kishilik jamiyati bo‘lishi shart. Masalan, bola odamlardan alohida holda yashasa, unda tilga ehtiyoj bo‘lmaydi. 1920-yilda Hindistonda ovchilar bir uyada ikki bo‘ri bolasi va ikki qizchaga duch keladilar. Qizlar o‘zlarini bo‘ri sifat tutardilar. Gapirishni bilmasdilar. Ularda tabiiy hodisalar – ovqatlanish, nafas olish, rivojlanish kabilar kuzatilgan, ammo til rivojlanmagan. Ularga til o‘rgatish qiyin kechgan va to‘rt yil davomida atigi 50 ta so‘zni o‘rganganlar, xolos.

Odamning qaysi tilda qanday gaplashishi uning muhitiga bog‘liq. Agar bolaning otasi o‘zbek bo‘la turib, u ingliz yoki rus tilida gaplashuvchi muhitda tarbiyalansa, u o‘zbek tilini bilmaydi va ingliz yoki arab tilida gaplashuvchi bo‘lib voyaga yetadi. Demak, til nasldan naslga o‘tmaydi. Tilning jamiyatdagi aloqa quroli vazifasini bajarishi uning **kommunikativ**, ya’ni **ijtimoiy** vazifasidir. Uning boshqa vazifalari ham bor. Tilning xabar, sezgi va his-tuyg‘u ifodalashi uning **ekspressiv** vazifasidir. Til kishilarning aloqa vositasigina bo‘lmay u millatlararo tajriba almashish, to‘plangan bilim va ko‘nikmalarni kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir. Bu tilning **akkumulativ** (lotincha – to‘plash) vazifasi hisoblanadi.

Tushunchalar tahlili

T.r.	Tushunchalar	Mazmuni
1.	Til – ijtimoiy hodisa	
2.	O'lik til	
3.	Tilshunoslik	
4.	Ekspressiv vazifa	
5.	Akkumulativ vazifa	

2-topshiriq. Mosliklarni aniqlang.

T.r.	So'zlar	Tillar
1.	kollej	fransuz
2.	litsey	ispan
3.	tadbirkor	arabcha
4.	fermer	nemis
5.	tuman	tojikcha
6.	viloyat	mo'g'ul

Bu tillarda gaplashuvchilar qayerda yashashini kattalardan so'rab oling. **“Geografiya”** darsligida berilgan kartalardan shu tilda gaplashuvchilar yashaydigan mamlakatlarni bilib olishingiz mumkin.

3-topshiriq. She'riy parchani o'qing. Matn va savollar asosida 2-3 gap bilan fikrlaringizni bildiring. **Yaxshi til, yomon til yo'q, hamma til bir,**

Ulug'lar oldida bu gap emas sir. (Alisher Navoiy)

1. Tillarni tabaqalashtirish, yaxshi-yomon tarzida kamsitish mumkinmi?
2. Ulug' shoir bu haqda nima deydi?
3. Bosh Qomusimizda (= O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi) mamlakatimizdagi millat va elatlarning tillari haqida nima deyilgan?

Ta'lim tizimini ta'limiy o'yinlarsiz tasavvur qilish imkonsizdir. Tajriba-sinovdan o'tayotgan o'quv dasturi bo'yicha taqdim qilinayotgan taqvimiy rejalarda ham mavzuga mos ta'limiy o'yinlar ko'rsatib otilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida ta'limiy o'yin ko'zda tutilgan bo'lsa, demak, shunga ishora qiluvchi tasvirga zarurat bor.

Ma'lumki, 5-sinf ona tili darsligi 204 darsdan iborat. Shundan 13 ta dars mustahkamlash darslaridir. Mustahkamlash darslarining dizaynlari ham o'ziga xoslikka ega bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz.

UCHINCHI BOB. DARSLIKLAR DIZAYNINI ZAMONAVIYLASHTIRISH YUZASIDAN TAVSIYALAR

3.1. “Ona tili” darsliklari uchun ilovalar zaruriyati

2013- yildan buyon tajriba-tadqiqot maydonlarida (har bir viloyatda 2 tadan) tajribadan o'tgan 50 ga yaqin **ilg'or pedagogik texnologiyalar** va **100 dan ortiq ilg'or ish tajribalari** ommalashtirilib, vazirlikning internet tarmog'idagi ta'lim portali www.uzedu.uz va rtm.uz ga joylashtirilmoqda.

Fanlar yo'nalishida yig'ilgan ilg'or tajribalar, pedagogik texnologiyalarni barcha umumta'lim maktablari o'qituvchilariga yoyish, targ'ib qilish, oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatidan keng foydalanish maqsadida hamkorlik dasturi asosida hududdagi pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kafedralari va professor-o'qituvchilarini biriktirgan holda umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan **“Mahorat maktablari”** faoliyati tashkil etilgan. Vazirlik tomonidan umumta'lim maktablari o'qituvchilarining mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rgan holda darslarni o'tishlariga, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan **“Dars muqaddas”, “Mahorat maktablari”, “O'rgan-o'rgat”, “Sog'lom muhit – sog'lom jamoa”, “Uzluksiz va uzviy”, “Murakkab fan – o'rganaman”** kabi turkum tadbirlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu turkum tadbirlar, albatta, ta'lim jarayonida o'z samarasini bermoqda.

Ana shu tadbirlar samarasi sifatida ona tili ta'limida ilg'or tajribali o'qituvchilar o'tkazilayotgan darslarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilishning turli usullariga murojaat qilmoqdalar.

Muhimi, bu tadbirlar ta'lim vositalari, ayniqsa, darsliklarning sifatini yaxshilashga ham muhim hissa bo'lib qo'shilmqda.

Umumta'lim fanlari bo'yicha tuman va viloyat “Mahorat maktablari” viloyatlar pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan OTM (oliy ta'lim

muassasalari) va malaka oshirish institutlarining yuqori malakali o'qituvchilari tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini o'zaro o'rganish, ilg'or tajribalarni va o'qituvchilarda uchraydigan kamchiliklarni aniqlash, zarur hollarda metodik yordam ko'rsatish, fandagi yangiliklarni, innovatsion-ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni targ'ib qilish, ilmiy-amaliy seminarlar o'tkazish, Xalq ta'limi vazirligining **“O'rgan-o'rgat”, “Uzviylik va uzluksiz”** tavsiyalarini amaliyotga joriy etish maqsadida tashkil etilmoqdi.

Biz ana shu “Mahorat maktablari”da tajriba sifatida ona tili darsliklarida mashq va topshiriqlar uchun ilovalar yaratish texnologiyasini taklif qildik. Bu ko'pchilik ona tili o'qituvchilari tomonidan ijobiy holat deb baholandi.

Chunki, aksariyat o'quvchilarning uyga vazifalarni bajarishda mashq shartlariga tushunmasligi, uni yechishga qiynalishi, kattalarning bir necha bor tushuntirishiga qaramasdan baribir anglab yetolmasligi ko'p uchrab turadi.

Masalan, 6-sinf ona tili darsligida berilgan 33-, 275-, 285-mashqlar o'quvchilarning mustaqil bajarishlari uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. To'g'ri, darsliklardan o'rin olgan mashq va topshiriqlar induktiv ta'lim usuliga tayanilgan holda tanlanmoqda. Ahamiyat qaratish talab qilinadigan muammo shundaki, aksariyat o'quvchilar ham **“Bilib oling”, “Esda tuting”** kabi ruknlar ostida berilgan mavzuga aloqador ta'riflarning mag'zini chaqishga qiynaladi. Ko'pgina hollarda ta'riflarga mos misollarning berilmasligi o'quvchilarning mavzuni tez va osonlik bilan, ko'p vaqt sarflamay tushunishlariga monelik qilmoqda. O'quvchi uyga vazifa bajarishda kattalarga murojaat qiladi, o'zidan kattalar – opa-akalari, ota-onalar ham esa zarur misollar bo'lmaganligidan qiyin vaziyatga tushadi. O'qituvchining misollar bilan bergan izoh va tushuntirishlari o'quvchining xotirasida yetarli darajada muhrlanib qolavermaydi.

Ona tili darsliklarida mashqlar uchun, nazarimizda, xuddi matematikadan misol va masalalar uchun javoblar berilganidek, javoblarni ilova sifatida keltirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunday fikrga kelishimizning bir necha sabablari bor. Bular quyidagilardir:

1. Uyga beriladigan vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi. Ta'lim mazmunining muhim va ajralmas jihatlaridan biri o'quvchilarga beriladigan uy vazifalari yuklamasidir. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatning asosiy bosqichlaridan biri bo'lgan uy vazifasi hozirgi kun ta'limida muammo darajasiga ko'tarildi. Chunki ortiqcha miqdordagi uy vazifasi o'quvchi va o'quv materiallariga qiziqishining yo'qolishi jismoniy va aqliy charchash, bo'sh vaqt hamda jamoat faoliyatlarida ishtirok etishga xohishning so'nishi kabi salbiy ta'sirlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi²⁷. Maktablarda, akademik liseylarda o'quvchilarga uy vazifasi berishni fan o'qituvchisining o'zi hal qiladi. Agar o'quvchilar uy vazifasi bilan ko'mib tashlanar ekan, uning samarali bajarilishini kutish qiyin. Me'yoridan ortiq miqdordagi uy vazifasi o'quvchilarni na o'qishga undaydi va na qiziqtiradi. ayrim fanlardan, shu jumladan, til va adabiyot fani bo'yicha o'rgatilmagan va tushuntirilmagan material yuzasidan uy vazifasini bajarib kelish topshiriladi, masalan, ona tilidan mavzu bo'yicha matn tuzish yoki insho yozish topshirig'i uyga vazifa qilib beriladi. Ammo o'quvchiga na matn tuzish qonun-qoidalari, na bu matnda qo'llanishi lozim bo'lgan leksik yoki grammatik material belgilab beriladi. Sinfda ham uy vazifasini bajarishdan avval uni qanday bajarish haqida ko'rsatmalar yoki tayanch materiallar berilmaydi.

Achinarlisi shundaki, bunday topshiriqlar mashq sifatida ona tili darsliklariga, akademik liseylarning darsliklariga ham kiritilgan.

Masalan, 5-sinf darsligining 4-sahifasidagi 5-mashqda "Bugungi ozod va obod hayotimiz haqida fikrlaringizni yozing", degan topshiriq berilgan. Ushbu dars kirish suhbatini bo'lib, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Hamma o'qituvchilar ham tilimizning mustaqillikdan oldingi va keyingi davri haqida, xalqimizning hayoti haqida to'la-to'kis ma'lumot beradi deb aytish qiyin, bajarilishi nazarda tutilgan mashqlar ham til odobiga bag'ishlangan. Xuddi shu mavzuga yaqin Ozod va obod diyorum" mavzusida kichik hikoya tuzishga doir topshiriq 20-mashqda ham uyga vazifa sifatida bajarilishi ko'zda tutilgan. 3-

²⁷ Usmonova K. Uy vazifasi dolzarb muammo. // Til va adabiyot ta'limi. -2007. 2-son. -B. 77-79.

darsdagi 10-mashqni, 4-darsdagi 17-mashqni bajarish jarayonida mavzu doir ma'lumotlar o'rinli taqdim qilinsa 20-mashqni sifatli bajarish mumkin.

Biz 5-sinfda uyga vazifa sifatida berilgan matn yaratishga doir topshiriqlarning miqdorini aniqladik:

T.r.	Matn turi	Matn mavzusi
1.	5-mashq	Bugungi ozod va obod hayotimiz haqida fikrlaringizni yozing
2.	9-mashq	Mustaqillik tufayli sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida hikoyacha yozing
3.	20-mashq	“Ozod va obod diyorim” mavzusida kichik hikoya yozib keling.
4.	60-mashq	“Saxiy kuz keldi” mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda ishlatilgan tinish belgilarini izohlang
5.	64-mashq	“Gulxan” jurnalidagi biror rasm asosida hikoya tuzing. Tuzgan hikoyangizga sarlavha toping hamda og'zaki so'zlab bering
6	94-mashq	“Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusida matn tuzing. Unda so'roq olmoshlari ishtirok etgan so'roq gaplardan foydalaning
7	103-mashq	“agar sharmisor bo'lmayin desang qilmagan ishni qildim dema” (“Qobusnoma”dan) hikmati mazmunini ifodalovchi hikoya tuzing va uni o'rtoqlaringizga o'qib bering
8	103-mashq	“Yurtimning ertasi mening tasavvurimda” mavzusida insho yozing. Inshoda albatta istak gaplar ishtirok etsin
9	117-mashq	“Men ardoqlaydigan fazilat” mavzusida matn tuzing. Undagi gaplar tarkibida kelayotgan bo'laklarga diqqat qiling
10	122-mashq	“Dam olish kunida” mavzusida kichik hikoya yozing. Undagi gaplarda ishlatilgan kesimlarni izohlang
11	132-mashq	Rasm asosida “Otalar so'zi –aqlning qo'zi” mavzusida matn tuzing. Uni tuzish jarayonida egalarga alohida e'tibor bering
12	136-mashq	“Yurtimizni bog'ga aylantiramiz” mavzusida hikoyacha tuzing. Unda yig'iq va yoyiq gaplardan foydalaning
13	149-mashq	“Vataning xizmat qilaman” mavzusida hikoya tuzing. Unda to'ldiruvchilar ishtirok etsin
14	158-mashq	Tabiat manzarasi haqida kichik hikoya yozing. Tabiatning qanday va qaysi jihatlari diqqatingizni jalb etadi
15	171-mashq	O'zingiz qatnashgan bayram, to'y yoki kechalarni tasvirlab hikoyacha tuzing. Unda uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'z ishtirok etsin
16	192-mashq	Rasm asosida “O'zbekiston XXI asrda” mavzusida matn tuzing. Unda qo'shma gaplardan foydalaning va ularni izohlang
17	201-mashq	Bironta mavzuda matn tuzing. Unda ko'chirma gaplardan foydalaning, ayrimlarini daftarlaringizga yozing
18	210-mashq	“Nonni isrof qilmang!” mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda

		darak, so‘roq, buyruq va istak gaplardan foydalaning
19	242-mashq	“Gulxan” jurnalidan istalgan matn olib undagi kelishik qo‘shimchalari qo‘llangan so‘zlarni kelishiklar tartibida ko‘chiring
20	256-mashq	“Bizning sinfimiz” mavzusida matn tuzing. Unda miqdor va tartib sonlar ishtirok etsin
21	267-mashq	Hikoya tuzing. Unda ishlatilgan fe’llarga diqqat qiling
22	278-mashq	Onangizga uy ishlarida qanday yordam berishingiz haqida hikoya tuzing. Unda hozirgi zamon fe’llaridan foydalaning
23	281-mashq	Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz? SHu haqda kelasi zamon fe’llari ishtirokida hikoyacha tuzing
24	313-mashq	Qo‘shma so‘zlar ishtirokida kichik bir matn tuzing
25	329-mashq	Tarixiy obidalarimiz haqida bilganlaringizni hikoya tarzida yozing. Unda ishlatilgan so‘zlarni izohlashga hozirlik ko‘ring
26	388-mashq	Rasm asosida matn tuzing. Gaplardagi a va o tovushlarining talaffuzi hamda imlosiga diqqat qiling
27	406-mashq	“Ko‘chat ekib bog‘ qiling” mavzusida matn tuzing. Unda q va g‘ undoshlari ishtirok etgan so‘zlardan foydalaning
28	413-mashq	Hafta kunlari haqida hikoya tuzing. Unda nb (mb) harflari yonma-yon kelgan so‘zlar ishtirok etsin
29	458-mashq	Stadionda mavzusida hikoya yozib keling. Unda tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlardan foydalaning
30	462-mashq	“Kamtarlik ulug‘ fazilat” mavzusida hikoya yozing. Unli tovushlarning aytilishi va imlosiga alohida diqqat qiling
31	530-mashq	Akademik litsey, kollej haqida bilganlaringizni yozma ravishda bayon eting
32	572-mashq	Rasmga qarab “Maktab bog‘ida” mavzusida hikoya tuzing. Fe’llarni uchala zamonda turli shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llang

Demak, 5-sinf o‘quvchilari yil davomida uyga vazifa sifatida 32 ta matn yaratishi talab qilinmoqda. Biroq ushbu matnlarni yaratish bo‘yicha tayyorgarlik jarayoni induktiv ta’lim usulida olib borilishi nazarda tutilmagan. Demak, o‘quvchilar uchun ilovalarda mashqlarni to‘g‘ri bajarish uchun **qo‘shimcha ko‘rsatma** yoki **tayanch material** taqdim qilish zarur.

2. Ayrim o‘qituvchilarning endi o‘z mehnat faoliyatlarini boshlayotganligi yoki tajribasizligi tufayli mashqlarning bajarilishi kutilgan natijani bermayotganligi kuzatilmoqda. Ayrim hollarda esa mashq va topshiriqlarning shartiga ko‘ra aniqlanishi lozim bo‘lgan lingvistik hodisa haqida yetarli bilimga

ega bo'lmashlik yoki o'xshash hodisa, birliklarni chalkashtirish tufayli ayrim mashqlar bajarilmasdan qoladi. Shuning uchun ham mashq va topshiriqlar uchun javoblar berilishi lozim deb hisoblaymiz.

3. Ma'lumki, jamiyatdagi barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasi ham kompyuterlashtirilmoqda. Ta'lim jarayoniga elektron darsliklar tatbiq qilinmoqda. Ona tili darslari amaliy yo'nalishdadir. Amaliy mashg'ulotlarda elektron darslik ta'lim oluvchiga mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'tkazilish tartibi haqida ma'lumot yetkazishi; javobning to'g'riligi yoki noto'g'riligi haqida axborot berishi; har bir ta'lim oluvchining bilimini nazorat qilishi; topshiriqlarning zaruriy nazariy material va bajarish uslubini ko'rsatishi; «pedagog-darslik-ta'lim oluvchi» tartibotida teskari aloqani amalga oshirishi kerak²⁸. Aslida chop etilgan bosma darsliklarda ham mashq va topshiriqlar bajarilishi yakunida ta'lim oluvchining bilim, malaka va ko'nikmalarini o'z vaqtida adolatli baholash nazarda tutilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Demak, darsliklardan o'rin olgan har qanday mashq va topshiriqlarning to'g'ri javobi bo'lishi taqozo qilinmoqda.

Ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlar uchun taklif qilinayotgan "Javoblar" darsliklar oxiridan o'rin oladi. Ularning tayyorlanishida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Ona tili darsliklarida mavzularning aniq hisobli darslarga taqsimlanganligi, mashqlarning ketma-ketlikda berilganligi bizga qulaylik tug'diradi. Javob tayyorlanishi zarur bo'lgan mashq raqamini ko'rsatib o'tish kifoya qiladi. Javob mashq shartiga mos keltiriladi.

Masalan, 5-sinf ona tili darsligida 43-,44-, 47-mashqlarda qo'shma so'zlarni aniqlash bo'yicha topshiriq qo'yilgan. Ularning javobini quyidagicha keltirish mumkin:

43: joriy qilindi, hozirjavob, mehmondo'st, mehnatsevar, bolajon, sofdil, dovyurak.

44: boychechak, har yon, ko'kterak, bir kuni, atirgul, to'polon qilish, xo'rozqand, olib kelmoq.

47: xafa bo'lmoq, bir zamonlar, Mingchinor, Laylakxona, nom bermoq.

52-mashqda gaplarning oxiriga kerakli tinish belgi qo'yilishi so'ralgan. Uning javobini quyidagi ko'rinishda berish mumkin: 52: (-), (?), (-), (.), (.), (.), (.), (?), (.), (?), (.), (!).

Aksariyat javoblar berilishi zarur bo'lgan mashqlar sintaksis sohasi uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlarda qilgan iltimoslari e'tiborga olindi. Masalan, **"Fe'l kesim va ot kesim"** mavzusi o'rganiladigan 34-darsda "Bilib oling" va "Esda tuting" ruknidan keyin 123-mashq keltirilib, unda kesimlarni topib, ularga izoh berish topshirilgan. Aksariyat o'quvchilar, hatto o'qituvchilar ham mashqdagi kesimlarni topishda qiynalishadi. Chunki kesimlarning ko'pchiligi iboralar bilan ifodalangan. **Boshiga kulfat tushdi, changalini soldi, qarab turolmadik, bag'rimizga oldik, taqa bo'la olsam, yurib ketsa, quloqlarimga kirib tursa, dunyodan o'tardim** kabilar. O'quvchilar iboralar bilan IV chorakda tanishadilar. Ular **tushdi, soldi, turolmadik, oldik, olsam, ketsa, tursa, o'tardim so'zlarini** kesim deb bilishadi va xatoga yo'l qo'yishadi. Ilovalar ana shu xatolarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarni o'rganishga bag'ishlangan mashqlar uchun ham javoblar tayyorlanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, 137-mashqda holni aniqlash topshirilgan. Biroq ana shu mashq uchun berilgan matnda holning murakkab turlari ko'proq uchraydi. O'quvchilar hali holning murakkab holda kelishini o'rganmagan. Shuning uchun javoblar tayyorlab qo'yilib, tushuntirish berilgani ma'qul bo'ladi.

137: ayiqpolvonnikiga (qayerga?), mehmonni yong'oq bilan siylamoqchi bo'lib (nima uchun?), u ko'nmagach (qachon?), yong'oq tagidan (qayerdan?), sal nariroq (qayerga?), ular yong'oq tagidan ketishi bilan (qachon?), daraxtga tirmashib chiqishib (qay tarzda?), birpasda (qachon?), mehmonning oldiga (qayerga?), u turgan joyda (qayerda?).

Xuddi shu tarzda 5-sinf ona tili darsligidagi 67-, 72-, 123-, 128-, 131-, 133-, 135-, 137-, 141-, 164-mashqlar uchun javoblar tayyorlash zarur.

Darslikdagi 492-, 493-, 494-mashqlar bajarilishi davomida o'quvchilar *tush, chang, bel, och, uch* kabi so'zlarning omonim ekanligini bilib oladilar. 495-mashq o'quvchilarni chuqur o'ylashga da'vat etadi. *Olma, ko'zlar, bog'lar* kabi urg'u tufayli ma'nosi farqlanadigan so'zlar ham omonim so'zlar deb hisoblanishini o'quvchilar ana shu mashqni bajarish davomida bilib oladilar.

Omonimlarni o'rganishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlaridan yana biri urg'u bilan farqlanuvchi so'zlarning ma'no va qo'llanilishi ustida to'xtalishdir. O'quvchi *akademik, ximik, fizik* kabi so'zlarda urg'uning qaysi bo'ginga tushishiga qarab ma'noning o'zgarishini bilsa, nutqda ulardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Demak, bu mashqlar uchun ham javoblar tayyorlanishi zarur.

Ma'lumki, tilni o'rganishda zamonaviy texnika vositalari bo'lmish:

1. Lingafondan foydalanish, ya'ni eshituv a'zolari orqali to'g'ri talaffuzni, qiroat san'atini o'rganish;

2. Video kurs: o'zbek tilining talaffuz me'yorlari audio–video muloqotini o'rganish.

3. Komunikativ savodxonlikni ta'minlashga qaratilgan kompyuter o'quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:

– Imloviy dasturlar (bunda o'quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv mashqlari disketlarga joylanadi.)

– Fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo'yicha o'quv mashqlari disketlarda beriladi):

– Grammatik dastur (morfologiya va sintaksis yuzasidan o'quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);

– Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o'quvchining uslubiyat bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish: so'z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishlash uchun mo'ljallangan savol va topshiriqlar,

mashqlar, ma'rifiy matnlar hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.

– Audio-video dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo'lib o'tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to'y, kelin salom, beshik to'yi); bayramlar – Mutaqillik kuni, Navro'z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylashtiriladi.

Bularni, ayniqsa imloviy, fonetik, grammatik dasturlarni tayyorlash uchun ham darsliklardagi mashq va topshiriqlarning kaliti tayyorlanishi zarur. Demak, bizning taklifimiz ona tili darslirlarining elektron shakllarini yaratishda ham katta yordam beradi.

3.2. Darsliklarning bosma nashrlarining takomillashtirilishi elektron adabiyotlar yaratishni jadallshtirish omili sifatida

Ona tili ta'limi uchun xorijiy tillarni o'rgatishda qo'llanilayotgan har xil mashq va topshiriqlar turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ingliz tilini o'qitish amaliyotida "WORKBOOK" kitobiga o'xshash uyda bajariladigan mashq va topshiriqlar uchun maxsus risola yaratilsa, o'quvchi nuqul darslikdan materialni qayta yozib chiqish o'rniga 25-30 daqiqa davomida o'rganilgan mavzu doirasidagi o'yin texnologiyalari, jadvallar, sxemalar, rasmlar bilan bezatilgan har xil topshiriqlarni bajarishi kafolatli natijani berishiga xizmat qiladi.

Kafolatlangan natijali ta'lim ona tilidan o'quvchining nimani bilishi ("Bilmoq") va nimani bajara olishi ("Bajara olmoq") lozimligini, ya'ni tajriba-sinovdan o'tayotgan DTS va o'quv dasturida belgilanganidek, kompetensiyalarga ega bo'lishni taqozo qiladi. Ta'lim usulining induktiv deb belgilanishi ana shu natijaviylik omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Til materiallarining induktiv usulda berilishi (til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlariga ajratish, umumlashtirish) o'quvchilarning fikrlashi, ijodiy faoliyati uchun yetarli darajada imkon yaratadi hamda ona tili mashg'ulotlarining

foydalilik darajasini oshiradi. Amaliyotda nazariy materiallar induktiv asosda turli yo‘llar bilan taqdim qilinmoqda. Uning eng qulay yo‘llaridan biri **nazariyaga oid ma’lumotlarni o‘quv topshirig‘i tarkibida** berishdir.

Xorij tajribalari natijasida til ta’limiga tatbiq qilinayotgan ta’lim texnologiyalari o‘quvchi-darslik-o‘qituvchi faoliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga o‘rgatishga yo‘naltirilganligi bois o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash zarurki, o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallashlarida o‘rgatuvchiga aylanadi.

O‘quvchilarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishining ortib ketishi o‘qitish jarayonida tub burilish yasash lozimligini ko‘rsatib turibdi. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida axborot olamida yashayotgan o‘quvchilarining ana shu xususiyatlarini ularning til ta’limiga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish omili, vositasi sifatida foydalanilmoqda.

Darsliklarning dizayni, nazariy ma’lumotlarning, mashq va topshiriqlar taqdim qilinishida texnologiyani jahon standartlariga muvofiqlashtirish elektron adabiyotlarni yaratish jarayonini jadallashtirishga yordam beradi. Fikrimizning dalili sifatida respublikamizning metodist olimlari, tajribali fan o‘qituvchilari, talaba va magistrantlar tomonidan o‘quv adabiyotlarining bir necha yillar davomidagi nashrlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirishga doir yangicha texnologiyalarni tavsiya qilish, shuningdek, shu asosda elektron adabiyotlar yaratish borasidagi tajribalarini beyond qilish o‘rinli bo‘lar edi.

Nukus davlat pedagogika institutida pedagog-xodimlar, magistrant va talabalar hammuallifligida (Sh.Yuldasheva, O.Zaripov, M.Bekjanova, D.Smaylova, Q.Gulmanova, G.Yangiboeva, D.Urazboeva) 5-sinf ona tili ta’limi uchun elektron o‘quv-metodik majmua (I qism) tayyorlanib 2015-yildan buyon Qoraqalpog‘iston Respublikasi umumta’lim maktablarida tajriba-sinovdan o‘tkazilmoqda.

Elektron majmuaning nazariy ma'lumotlarni bayon qilish qismida "O'zbek bolasi" (J.Mirsagatov), "Alla" (H.Oxunova), "To'y bola" (R.Komilov) kabi qo'shiqlardan, shuningdek, darslarning mustahkamlash qismi uchun tez aytishlar, ertaklar yozilgan audiomatnlar foydalanildi va ularning samaradorligi tajriba-sinovlarda aniqlandi. "Ayrim unlilar va undoshlar imlosi" mavzusi (3-4-darslar) uchun tez aytishlar audiomatn sifatida tayyorlandi.


Elektron majmuadan mavzu (3-4-darslar) tanlanib, unga kirilgach, audiomatn uchun mos ramziy belgi chertilsa, audiomatn va topshiriq ochiladi:

1-rasm.



Audiomatnni boshqarish paneli mavjud:

2- rasm.



1 – audiomatnni to'xtatish yoki ishga tushirish tugmasi.

2 – ovozni o'chirish va yoqish tugmasi.

3 – tinglab, tez aytish matnini kiritish uchun bo'sh joy.

Matn kiritilgach, uning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligi tekshiriladi:

3- rasm.




To'g'ri javob uchun rag'batlantiriladi. Agar javob xato bo'lsa, o'quvchiga yana bir imkoniyat beriladi:

4- rasm.



Ikkinchi imkoniyatdan so'ng, o'quvchi "Natija" tugmasini chertadi. To'plangan ball ko'rsatiladi. O'quvchi xatosini "Natijani ko'rish" tugmasini chertish orqali bilishi mumkin:

5- rasm.




1 – to'g'ri javobni ko'rsatish tugmasi.

2 – o'quvchi javobi va to'g'ri javob.


Ma'lumki, WWW.ertak.uz saytida [8.] "Audiokutubxona" tashkil qilingan bo'lib, undan audio ertaklar va qo'shiqlarni yuklab olish mumkin:

6- rasm.



5-sinf uchun tayyorlangan elektron majmuada "Gap bo'laklari" (61-dars) takrorlanadigan darsda WWW.ertak.uz saytidan yuklab olingan "Oltin tarvuz" audio ertagidan foydalanilgan. Mazkur audio ertakni tinglash va "Esse" topshiriqlarini (3 ta) bajarish jarayonida o'quvchilar matnni qismlarga ajrata olishlari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni, uyushiq bo'laklarni aniqlay olishlari zarur. Bo'sh o'ringa gap bo'laklari tahlil qilinib, tahlil matni kiritilishi kerak. Mazkur topshiriq uchun to'g'ri javoblar kiritib qo'yilmagan. O'quvchi javobi o'qituvchining elektron manziliga jo'natilishi yoki bosmaga chiqarilishi mumkin.

7- rasm.



Axborot kommunikatsiya vositalaridan dars jarayonida foydalanish o'qituvchidan ijodkorlikni, izlanishni talab etadi. Shu bois o'qituvchining o'zi ham mavzuga mos audio yoki videomateriallarni tanlashi, dars jarayonida maqsadga muvofiq foydalanishi mumkin. Bu dars samaradorligining o'sishiga, o'quvchilarni fanga qiziqtirishga va ularning mustaqil fikrlashini o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Audiomatnlarni yaratish uchun o'qituvchi kompyuter dasturlarining ayrimlari bilan tanish bo'lishi kerak. Jumladan, video, audio bilan ishlovchi Windows Media Player, Vinamp va boshqa dasturlar mavjud.

O'rgatuvchi dastur yaratishda Camtasia Studio, iSpring Suit dasturlari yordamida kompyuterga ulanuvchi mikrofon qurilmasi orqali tasvirga olish bilan bir vaqtda, jarayonning sharhlab ketilishi (ovoz)ni ham yozib olish imkoniyati mavjud [9, 10, 11, 12].

O'rgatuvchi dasturda savollarga to'g'ri javoblar, yordamchi ma'lumotlar va chuqurlashtirilgan ma'lumotlar bo'lishi kerak, bulardan o'quvchi xohlagan vaqtda foydalanishi mumkin.

N.Umarova o'zbek tilini o'rgatish uchun mo'ljallangan ta'limiy-elektron ishlanmalarga quyiladigan talablarni sanab berar ekan: "Til o'rgatish maqsadida yaratilgan ta'limiy-elektron ishlanma tarkibida turli lug'atlar bo'lishi shart, bevosita mavzu va mashg'ulot turidan kelib chiqqan holda o'zbek tilining izohli lug'ati, imlo lug'ati, omonimlar, sinonimlar, paronimlar, antonimlar lug'ati, morfem lug'at, etimologik lug'at va boshqa turdagi lug'atlarga murojaat qilish o'rinli. Masalan, yozma nutqni o'stirishga yo'naltirilgan ta'limiy-elektron ishlanmada imlo lug'ati alohida o'rin tutishi lozim, – deb hisoblaydi [13.]. O'qituvchilar yuqorida sanab o'tilgan lug'atlarning PDF nusxalaridan foydalanib kelishmoqda. Biroq elektron adabiyotlar yaratishda lug'atlarning PDF nusxasidan emas, balki elektron lug'atlardan foydalanish qulay bo'ladi. Chunki foydalanuvchilar ixtiyoriy dars mavzusiga doir mashqlar va testlarni yechish

jarayonida lugʻatlarga tezkor oʻtishlari, lugʻatlarda izlash imkoniyatlari mavjud boʻlishi taqozo qilinadi.

Elektron lugʻat – odatdagi lugʻatlar asosida tuzilgan, multimedia vositalari bilan boyitilgan dastur. Elektron lugʻat turli yoʻnalishda tuzilishi mumkin, undan oʻquvchi va talabalarning soʻz boyligini oshirish, tarjima qilishda foydalaniladi [9].

5-sinf ona tili taʼlimi uchun yaratilgan elektron oʻquv-metodik majmuadan 6 turdagi elektron lugʻat oʻrin olgan va majmuaning chap tomonidagi burchakda joylashtirilgan:



Bu lugʻatlar quyidagi tartibda:


1. Soʻz tarkibi elektron lugʻati (Bu lugʻat imlo lugʻati vazifasini ham bajaradi).
 2. Maʼnodosh soʻzlar elektron lugʻati.
 3. Zid maʼnoli soʻzlar elektron lugʻati.
 4. Shakldosh soʻzlar elektron lugʻati.
 5. Iboralar elektron lugʻati.
 6. Tasviriy ifodalar elektron lugʻati
- Lugʻatlarda “Izlash” tugmasi mavjud.

9- rasm.




Chap tomondagi “Izlash” qismidan kerakli soʻzni yozib, uning oʻng tomondagi izohi bilan tanishish mumkin.

10- rasm.



“Soʻz tarkibi elektron lugʻati”da soʻzning tarkibini aniqlashda qiyinchilik tugʻdiradigan fonetik oʻzgarishlar: tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashishi eʼtiborga olingan. Har bir darsning ixtiyoriy qismida lugʻatlardan foydalanish mumkin:


11- rasm.



Soʻz tarkibi elektron lugʻatidan oʻrni bilan imlo lugʻati sifatida foydalanish mumkin. Chunki soʻzlarning tarkibiy tuzilishi haqida qatʼiy bilimga ega boʻlish, asosga turli vazifadagi morfemalar qoʻshilishi natijasida yuz beradigan fonetik oʻzgarishlarni anglab olish, shubhasiz, yozuvdagi har xilliklarni bir shaklga keltirishga yordam beradi.

Elektron majmuaga kiritilgan lugʻatlarning ayrimlarida rasmlardan ham foydalanilgan. Xususan, “Tasviriy ifodalar elektron lugʻati” shunday tuzilishga ega. Masalan, juft soʻzlar qatnashgan tasviriy ifodalarni izlab topish va ularning qaysi predmet uchun qoʻllanilishini oʻrganish jarayonida predmetga mos tasvir ham taqdim qilingan:

12- rasm.



13- rasm.



Tasvir hajmini oʻzgartirish imkoniyati mavjud:

14- rasm.



Multimediya texnologiyalari, “O‘n marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” degan xalq maqolida aytilganidek, o‘quvchi tomonidan ovoz, matn, grafik tasvir uyg‘unligidagi o‘quv materialining 80%ini eslab qolishiga erishish imkoniyatini beradi.

XULOSA

So'nggi vaqtlarda pedagoglar, psixologlar, fiziologlar va ta'lim jarayoning boshqa tadqiqotchilari hamda o'qituvchilar zamonaviy umumiy o'rta ta'limning kamchiliklarini e'tirof etmoqdalar. Psixologlar va fiziologlar bugungi maktab o'quvchisining juda og'ir yuklamalarga ko'mib tashlanganini ta'kidlashadi. O'quv rejalari hajmi katta bo'lgani tufayli ta'limni individuallashtirish imkoniyati kamaygan. Bitiruvchilarni tayyorlashning zamonaviy talablari ayrim fanlar mazmunida o'z aksini topa olmayotganligini qayd etish zarur. O'quvchilarning kommunikativ va sotsiologik kompetensiyalarini shakllantirishga yetarli darajada diqqat-e'tibor qaratilmayotganligi, ilmiy va texnologik ishlab-chiqarish amaliyotiga maqsadli yo'naltirilmayotganligi, aksariyat hollarda o'quvchilarni yosh va fiziologik imkoniyatlarining hisobga olinmayotganligi namoyon bo'lmoqda. O'quv materialini taqdim qilinishida tushuntirish metodlarining ustunligi o'quvchilarning o'zlashtirilish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Bu sanab o'tilgan masalalar ta'lim tizimini tashkil qiluvchi barcha unsurlarga, omillarga bog'liqdir. Bizning nazarimizda, ta'lim jarayoni ta'lim vositalariga uzviy bog'langani bois yetilib qolgan muammolarni hal qilishda ham aynan ana shu ta'lim vositalari takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada o'qituvchining asosiy qo'llanmasi – darslik modernizatsiya qilinishni taqozo qilmoqda. Kurs ishimizda ana shu muammo atrofidagi masalalardan biri – darsliklar dizayni (sifati va mazmuni)ni tahlil qilish jarayonida imkon darajasida muammo yechimi sari olib keluvchi omillarni aniqlashga harakat qildik.

Ishimizning kirish qismida ta'kidlaganimizdek, 5-sinf "Ona tili" darsligi 2015-yilda qayta nashr qilinishida darsliklar dizayniga qo'yiladigan talablarning hammasi ham e'tiborga olinmaganligi ma'lum bo'ldi.

Darsliklar mazmunida alohida o'rin tutuvchi nazariy qismlarni berishda an'anaviylikdan chekinish, aksincha jadval, sxema, algoritmlardan foydalanish murakkab ilmiy tushunchalarni oson o'zlashtirish imkonini berishi mumkin.

Darsliklarning amaliy qismida esa mashq va topshiriqlarning sarlavha qismi (talabi, sharti), shuningdek, material qismi dizaynlarini ham zamonaviylashtirish ehtiyoji kuchaydi.

Shu bilan birga o'quvchilarning kommunikativ, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun "Ona tili" darsliklarini tushunilishi qiyin so'zlar uchun izohlar, ularga mos illustratsiyalar, til tarixi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar, hayotiy voqealarga oid lavhalar bilan boyitish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ona tili darsliklarida maxsus piktogrammalarning qo'llanishi va har xil tasvirlar bilan bezatilishi mazmundor darslikni o'quvchining sevimli do'sti, hamrohiga aylantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Darsliklarni takomillashtirish jarayoni qanchalik sifatli olib borilsa, ularga ilova sifatida tayyorlanadigan multimediya resurslarini ham sifatli, qulay tayyorlash imkoniyati shunchalik kengayishi mumkin.

Tan olish kerak, darsliklarni yaratish murakkab jarayondir. Ana shu jarayonga tilshunos va metodist olimlar, pedagoglar, psixologlar, dizaynerlar, maktab o'qituvchilari va o'quvchilar, muharrirlar, dasturchilar jalb qilinsa, amaliyotda o'zini oqlagan xorij tajribalari tatbiq qilinsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1996. 4-jild.– 349 b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, NMIU, 2015.– 304 b.
3. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: “Ma'naviyat”, 2015. – 224 b.
4. Jo'rayev va b. Ingliz tili/ 5-sinf: ta'lim barcha tillarda olib boriladigan maktablar uchun darslik. – T.: O'qituvchi. NMIU, 2015. – 200 b.
5. Litnevckaya E.I., Bagryanseva V.A. Metodika prepodavaniya russkogo yazika v sredney shkole. –M.: 2006.
6. Zelenina V.I., Rojnova M.I. Russkiy yazyk / Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2015. – 240 b.
7. Agzamova N.A. Zamonaviy darsliklarning yaratilish tarixi. //Maktab va hayot. 2008 №2. – B. 29-30
8. Usmonova K. Uy vazifasi dolzarb muammo. // Til va adabiyot ta'limi. - 2007. 2-son. -B. 77-79.
9. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. – Tuzuvchilar: Toshkent, Sharq, 2002.
10. Otaxonova S. Darsliklar haqida//”Ma'rifat” gazetasi. 2004-yil 9-iyun, 46-son.
11. To'xliiev B., Inog'omova R., Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, 2008. 10 b.
12. WWW. Ziyonet.uz.
13. <http://web.uvic.ca/hcmc>.
14. www.hotpotatoes.net
15. <http://web.uvic.ca/hrd/hotpot>
16. www.ispring.ru
17. <http://www.lookatme.ru/mag/people/manifesto/197871-how-to>